2-masalada ham birinchi masaladagidek yechim jarayoni shunday olib boriladi, biroq o'quvchi e'tibor berishi kerak bo'lgan kuchning ta'sir chizig'ini bilishi va Nyutonning uchinchi qonuniga ko'ra ta'sir va aks ta'sir qonuniga asosan F kuch yoki reaksiya kuchi ham deyiladi. Ya'ni sharning devorga beradigan kuchi bilan devorning sharga beradigan kuchini bilish va tasavvur qilish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda, F kuch (reaksiya kuchi) taranglik kuchi bilan 120^0 ga va og'irlik kuchi 90^0 ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

3-masalada sharning devorlarga va devorlarning sharga ta'sir kuchlari, ularning ta'siri, kesishish nuqtasini aniqlab olamiz. Birinchidan, N_A va N_B reaksiya kuchlari sharlarning A va B devorlarga beradigan ta'sir kuchi yoki reaksiya kuchi deyiladi. Nyutonning uchinchi qonuniga asosan ta'sir aks ta'sir qonunini shar devorga qanday kuch bilan ta'sir qilsa, devor ham sharga shunday kuch bilan ta'sir qiladi. Ikkinchdan, sharning devorlarga urilish nuqtasi perpendikulyarligidan N_A va N_B reaksiya kuchlari bilan devor orasidagi burchak 90^0 ekanligi kelib chiqadi.

ISSN 3030-3907

Uchinchidan, kuchning yo‘nalishi kuchning ta’sir chizig‘i yo‘nalishi bilan bir xil yo‘nalgan. Sharning devorlarga beradigan kuch chiziqlari yoki devorlarning sharga beradigan ta’sir kuch chiziqlari bilan sharning og‘irlik kuchi kesishadigan nuqtani topamiz. N_A reaksiya kuchi qarshisidagi burchak 150^0, og‘irlik kuchi qarshisidagi burchak 90^0, N_B reaksiya kuchi qarshisidagi burchak 120^0 ekanligi aniqlandi va hisob-kitoblar oldingi masalalardek yechiladi.

4-masalada 3-masaladan farqli ravishda shar A va B devor bilan bevosita ta’sirlashadi, undan tashqari sharning ustidan bosadigan F kuchning yo‘nalishini bilgan holda uning *y* va *x* o‘qlardagi proyeksiyalarini (qiymatlarini) topamiz. Shar muvozanatda bo‘lishi uchun kuchlarning *y* va *x* o‘qlardagi qiymatlarini tenglashtirib noma’lum kuchlarni topamiz. N_A reaksiya kuchi $P+FSin\alpha$ ga teng. N_B reaksiya kuchi esa $Fcos\alpha$ teng.

Xulosa va takliflar. Maqolada uchta kuch muvozanatini o‘rganishda sinuslar teoremasidan foydalanish afzalliklarini yoritishda quyidagi xulosalarga kelindi:

Murakkab holatdagi masalani ham kuchlarning ta’sir kuch chiziqlarini o‘tkazish orqali kuchlar orasidagi burchakni aniqlab, osongina sinuslar teoremasiga keltirib masala yechimini topish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://lex.uz/docs/5338558- Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘lmasova M.H. “Fizika mexanika va malekulyar fizikasi” 1-kitob..(Akademik litseylar uchun) Toshkent. O‘qituvchi-2007 y.
3. Nikitin E.M. texnikumlar uchun Nazariy mexanika Toshkent. O‘qituvchi, 1970.
4. Dusmuratov M.B. Oliy o‘quv –yurtlriga kiruvchilar uchun qo‘llanma 2016.
5. No‘monxo‘jayev A.S., Xudoyberganov A.M., Tursunmetov K.A., Fattaxov M.A., Nurmatov N.A., Normatov B. “Fizika” I qism, Akademik lisey uchun. – T.: “O‘qituvchi”, 2001. 352 b.
6. Tursunmetov K.A., Uzoqov A.A., Bo‘riyev I., Xudoyberganov A.M. Fizikadan masalar to‘plami. Toshkent. “O‘qituvchi”, 2005.
7. Rimkevich A.P. “Fizikadan masalalar to‘plami”. Toshkent. O‘qituvchi, 2012.
8. Ahmedjanov I. O., Bekjonov R. B. Fizika (oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun) Toshkent.-1998.
9. Tursunmetov K.A. va b.. Fizikani takrorlang. Ma’lumotnoma. – T.: “O‘qituvchi”, 2007-2012. 200 b.
10. Myakishev G. Ya., Buxovsev B. B.. Fizika. O‘rta maktabning 11-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1995.

ISSN 3030-3907

UDK 51:621.72+665.551.1(045)

IKKI QATLAMLI O‘ZARO DINAMIK BOG‘LANGAN GAZ KONLARI FILTRATSIYA JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Nazirova Elmira Shodmonovna
Tashkent University of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, DcS, professor
E-mail: elmira_nazirova@mail.ru
Mahmudova Mohiniso Mizrof qizi
Tashkent University of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Phd
E-mail: mahmudova_mohiniso@mail.ru
Eshqarayeva Narxol G‘uzarovna
Karshi State University, PhD, associate professor
E-mail: 1970narxol@gmail.com
Xujamurotova Mashxura G‘ayrat qizi
Karshi State University, doctoral student
E-mail: mashxuraxujamurotova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘ovak muhitlarda ikki qatlamli gaz nostatsionar filtratsiya jarayonining matematik modeli va hisoblash algoritmi keltirilgan. Modellashtirish jarayonida qatlam bosimi hamda o‘tkazuvchanlik koeffitsientlarining fazoviy va vaqtga bog‘liq o‘zgaruvchanligi inobatga olingan. Chegaraviy masalani sonli modellashtirishda chekli-ayirmalar usuli, kvazichiziqli usul va Gauss usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, samarali sonli usullar va algoritmlar asosida dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan. Shu bilan birga kompyuterda hisoblash tajribalarini o‘tkazish va olingan sonli natijalarni vizuallashtirish jarayonlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Matematik model, algoritm, dastur, sonli usullar, ko‘p qatlamli, dinamik aloqa, sust o‘tkazuvchan qatlam, chekli ayirmalar usuli, Gauss usuli.

Abstract. This article presents a mathematical model and a computational algorithm describing the unsteady gas filtration process in a two-layer porous medium. In the modeling process, variations of the formation pressure and permeability coefficients with respect to both space and time are taken into account. To solve the boundary value problem numerically, the finite difference method, the quasi-linear approach, and the Gauss method are applied. In addition, software has been developed based on efficient numerical methods and algorithms, allowing for computer simulations and visualization of the obtained numerical results.

The outcomes of this research can be effectively used for the analysis and optimization of gas field development processes.

ISSN 3030-3907

Keywords: Mathematical model, algorithm, software, numerical methods, multilayer filtration, dynamic interaction, low-permeability layer, finite difference method, Gauss method.

Аннотация. В данной статье представлена математическая модель и вычислительный алгоритм, описывающие нестационарный процесс фильтрации газа в двухслойной пористой среде. При моделировании учитываются изменения пластового давления и коэффициентов проницаемости в пространстве и во времени. Для численного решения краевой задачи использованы методы конечных разностей, квазилинейный подход и метод Гаусса. Кроме того, на основе эффективных численных методов и алгоритмов разработано программное обеспечение, позволяющее проводить компьютерные эксперименты и визуализировать полученные численные результаты. Результаты исследования могут быть эффективно применены для анализа и оптимизации процессов разработки газовых месторождений.

Ключевые слова: математическая модель, алгоритм, программное обеспечение, численные методы, многослойная фильтрация, динамическая связь, слабопроницаемый слой, метод конечных разностей, метод Гаусса.

1. Kirish

Hozirgi kunda ko‘p qatlamli o‘zaro dinamik bog‘langan gaz konlari filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish va gaz sanoatiga tatbiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Gaz sanoati xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, tabiiy yonuvchi gazlar sanoat va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi. Mamlakatning yoqilg‘i balansida tabiiy gazning ulushi tobora ortib bormoqda. Gazdan foydalanish texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va moddiy ishlab chiqarish sohasida resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Gaz konlarini o‘zlashtirish va ulardan oqilona foydalanish murakkab filtratsion jarayon bo‘lib, uni real vaqtda tadqiq qilish juda katta mablag‘ va vaqt talab qiladi. Shu sababdan ushbu jarayonni matematik va sonli modellar asosida tadqiq qilish, kompyuterli modellashtirish va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqib ilmiy tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

G‘ovak muhitda gazning filtratsiya jarayoni, gaz parametrlarining turli qiymatlari hamda filtratsiya maydonining turli konfiguratsiyalari uchun kompyuterda bir qator hisoblash tajribalari olib borilmoqda "Ikkita o‘zaro dinamik bog‘langan gaz va neft konlaridagi qatlam tizimi uchun matematik model hamda uni echish usullari adabiyotlarda batafsil yoritilgan bo‘lib, ushbu maqolada keng foydalanilgan. Maqolada oddiy differensial tenglamalar tizimlari uchun Koshi masalalarini echishning chegaraviy masalalari, shuningdek, elliptik tipdagi

ISSN 3030-3907

tenglamalar sistemalari, parabolik va giperbolik tipdagi tenglamalar uchun boshlang‘ich va chegara shartlari bilan masalalarni echish, hamda elliptik tipdagi operatorlar uchun o‘zaro qiymat masalalari ko‘rib chiqilgan [1].

Maqolada ko‘rib chiqilayotgan har bir masalada yuzaga keladigan klassik tenglamalarni echishning raqamli usullarini qurishni ko‘rsatish, asosiy g‘oyalar va tushunchalarni berish, shuningdek, amaliyotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ba’zi tadqiqot ko‘nikmalarini berishdir. Monografiyada algoritmlarning konstruksiyalari va ayrim tadqiqotlari bayon etilgan, sonli usullarni qo‘llash shartlari shakllantirilgan va ularga qisqacha tavsif berilgan. Ammo matematik modelni qurish shartlarini (dastlabki ma’lumotlarni spetsifikatsiya xatosi, muammo echimlarining mavjudligi va o‘ziga xosligi va boshqalar) hisobga olmasdan hal qilish usullari haqida gapirish mumkin emas. Shu bilan birga, masalaning har bir mashina echimi matematik yoki fizik model tenglamalarining echimi emas, shuning uchun kitobda mashinalarda olingan hisoblash natijalarini tahlil qilishning ba’zi masalalari ko‘rib chiqilgan va echimning to‘g‘riligini tekshirish bo‘yicha ba’zi tavsiyalar berilgan.[2]

Maqolada mahsuldor qatlamlardan gaz qazib olishni ko‘paytirish va tadqiqot obyektining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida gaz konlarini o‘zlashtirishning dolzarb muammosi ko‘rib chiqilgan. Sust o‘tkazuvchan qatlamlarga ega bo‘lgan bir jinsli bo‘lmagan uch qatlamli g‘ovak muhitda gaz filtratsiyasi jarayonining matematik modeli va ularning dinamik aloqasi ko‘rib o‘tilgan. Ushbu murakkab jarayonni sonli modellashtirishda chekli ayirmalar usuli, kvazichiziqli usul va iteratsion usullardan foydalanilgan[4].

Maqolada neft -gaz tizimida ikki fazali filtratsiya jarayonini sonli modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan, hamda masalani echishning sonli algoritmi va neft va gaz konlarini o‘zlashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisoblash tajribalari keltirilgan. Maqolda keltrilgan sonli algoritm turli chegara va boshlang‘ich shartlarga ega bo‘lgan bosim hamda to‘yinganlik sohalarini hisoblash uchun mos keladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan matematik model ko‘rib chiqilayotgan jarayonlarni etarli darajada aniqlik bilan tavsiflaydi, bu esa neft va gaz konlarini o‘zlashtirishni tahlil qilishda va ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun ishlatilishi mumkin[5-6]

Maqolada bir jinsli bo‘lmagan g‘ovak muhitda turli xil qatlam o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan neft filtratsiya jarayonining matematik modellashtirish masalasi ko‘rib o‘tilgan. Qo’yilgan masalani echish uchun chekli-ayirmalar usulidan foydalanilgan. Maqolada taklif etilgan dasturiy vosita neft konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, shuningdek hisoblash tajribalari natijalarini grafik ko‘rinishda vizual tarzda aks ettirish va neft konlarini prognozlashda qo‘llanilishi mumkin[8-9].

ISSN 3030-3907

2. Matematik model

Ko‘p qatlamli gaz konlarini o‘zlashtirishda qatlamlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirlarni hisobga olgan holda, oraliq qatlamlar sust o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan bir jinsli bo‘lmagan uch qatlamli g‘ovak muhitda gazning filtratsiya jarayoni va qatlamlar o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi.

Oraliq qatlamlarning o‘tkazuvchanligi sust bo‘lgani sababli, bu qatlamlarda suyuqlik harakati faqat vertikal yo‘nalishda sodir bo‘ladi. Shu tufayli bunday jarayonning matematik modeli ikkita bir o‘lchamli parabolik tipdagi o‘zaro bog‘langan differensial tenglamalardan iborat quyidagi tenglamalar tizimidan tashkil topadi.

$$\begin{cases} \dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_1(x)h_1(x)\dfrac{\partial P_1^2}{\partial x}\right] = 2a\mu m h_1(x)\dfrac{\partial P_1}{\partial t} - \dfrac{K_{П1}(x)}{h_{П1}(x)}(P_2^2 - P_1^2); \\ \dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_2(x)h_2(x)\dfrac{\partial P_2^2}{\partial x}\right] = 2a\mu m h_2(x)\dfrac{\partial P_2}{\partial t} - \dfrac{K_{П1}(x)}{h_{П1}(x)}(P_2^2 - P_1^2) - Q; \\ K = K_0\left[1 - a_k\left(P_0 - P\right)\right]. \qquad 0 < x < L,\ t>0. \end{cases} \quad (1)$$

Masalaning boshlang‘ich va chegaraviy shartlari quydagicha:

$$P_1(x,t_0) = P_{1H}(x),\ P_2(x,t_0) = P_{2H}(x); \quad (2)$$

$$-K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x}\bigg|_{x=0} = \alpha\lambda(P_A - P_1);\ K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x}\bigg|_{x=L} = \alpha\lambda(P_B - P_1); \quad (3)$$

$$-K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x}\bigg|_{x=0} = \alpha\lambda(P_A - P_2);\ K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x}\bigg|_{x=L} = \alpha\lambda(P_B - P_2); \quad (4)$$

$$Q = \sum_{i_q}^{N_q} q_{i_q}\delta(x - x_{i_q});\ \ i_q = 1,...N_q; \quad (5)$$

Bu yerda:

δ – Dirak delta funksiyasi; n – chegara sohadagi normal; μ – gaz qovushqoqligi; P_A – chegaradagi bosim; P_1, P_2 – mos ravishda qatlamlardagi bosimlar; P_{1H}, P_{2H} – qatlamlar boshlang‘ich bosimi; K_1, K_2 – qatlamlar o‘tkazuvchanlik koeffitlar ; $K_{П1}, K_{П2}$ – sust o‘tkazuvchanlik qatlam koeffitsentlari; h_1, h_2 – qatlamlar quvvati; m – qatlamlar g‘ovaklik koeffitsenti; q_{i_q} – i_q chi debiti; a – gaz to‘yinganligi; L – qatlam uzunligi; N_q – quduqlar soni; λ – o‘lchamga keltiruvchi parametr.

$$\alpha = \begin{cases} 0, – \text{ chegara mahkamlangan;} \\ 1, – \text{ chegara mahkamlanmagan.} \end{cases}$$

Qo‘yilgan chegaraviy masalani sonli usulda echish uchun uni o‘lchamsiz holatga keltiramiz. Buning uchun (2.1) tenglamalar tizimida quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

ISSN 3030-3907

$$x^* = \frac{x}{L};\ \tau = \frac{K_x t P_x}{2am\mu L^2};\ K_1^* = \frac{K_1}{K_x};\ K_2^* = \frac{K_2}{K_x};\ K_{П1}^* = \frac{K_{П1}}{K_x};\ h_1^* = \frac{h_1}{h_x};$$
$$h_2^* = \frac{h_2}{h_x};\ h_{П1}^* = \frac{h_{П1}}{h_x};\ P_1^* = \frac{P_1}{P_x};\ P_1^* = \frac{P_1}{P_x};\ q^* = \frac{\mu L^2}{K_x h_x P_x} Q;\ \lambda^* = \frac{L}{K_x h_x}\lambda. \quad (6)$$

Bunda K_x, h_x, P_x mos ravishda qatlam o‘tkazuvchanligi, quvvati va bosimning ma’lum kattalikdagi qiymatlari:

$$K_x = \max(K_1,\ K_2,\ K_{П1});\ h_x = \max(h_1,\ h_2,\ h_{П1});\ P = \max(P_1,\ P_2). \quad (7)$$

Tenglamalar tizimida bu almashtirishlarni bajarib quyidagi o‘lchamsiz tenglamalar tizimiga kelamiz:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_1(x)h_1(x)\dfrac{\partial P_1^2}{\partial x}\right] = \dfrac{h_1 \partial P_1}{\partial \tau} - \dfrac{K_{П1}L^2}{h_{П1}h_x^2}(P_2^2 - P_1^2); \\ \dfrac{\partial}{\partial x}\left[K_2(x)h_2(x)\dfrac{\partial P_2^2}{\partial x}\right] = \dfrac{h_2 \partial P_2}{\partial \tau} - \dfrac{K_{П1}L^2}{h_{П1}h_x^2}(P_2^2 - P_1^2) - \delta q; \\ K = K_0\left[1 - a_k\left(P_0 - P\right)\right]. \qquad 0 < x < L,\ t>0. \end{cases} \quad (8)$$

Tenglamalar tizimida qulaylik uchun $T_1 = K_1 h_1$, $T_2 = K_2 h_2$, $\mathrm{R}_1 = \dfrac{K_{П1}L^2}{h_{П1}h_x^2}$ belgilashlarni kiritamiz.

O‘lchamsiz chegaraviy masalani chekli ayirmali usulini qo‘llab echamiz.

3. Sonli modellashtirish

Qo‘yilgan (8) o‘lchamsiz chegaraviy masalani echish uchun uning sonli modellashtiramiz, bunda chekli ayirmalar usulini qo‘llaymiz. Buning uchun x o‘qida G soha uchun $0 < t < T_0$ vaqt oraliqlarida quyidagi to‘rni quramiz:

$$\omega_{x,\tau} = \left\{ x_i = i\Delta x;\ \tau_l = l\Delta\tau;\ l=0,1,2,...,\mathrm{N}_\tau;\ \Delta\tau = \frac{T}{N_\tau} \right\}.$$

Bu erda $\Delta x -$ x o‘qi bo‘yicha qadam; $\omega_{x,\tau} -$ to‘r soha.

Ma’lumki parabolik tipdagi tenglamalar tizimini diskretlash usullaridan biri chekli ayirmali usuldir. Bu usulni chegaraviy masalaga qo‘llab (8) differensial tenglamalar tizimini quyidagi chekli ayirmali tenglamalar tizimiga keltiramiz:

$$\frac{T_{1i-0,5}P_{1i-1}^{2(l)} - (T_{1i-0,5} + T_{1i+0,5})P_{1i}^{2(l)} + T_{1i+0,5}P_{1i+1}^{2(l)}}{\Delta x^2} = h_{1i}\frac{P_{1i}^{l+1} - P_{1i}^{l+1}}{\Delta\tau} - R_1 P_{2i}^{2(l+1)} + R_1 P_{1i}^{2(l+1)};$$
$$\frac{T_{2i-0,5}P_{2i-1}^{2(l)} - (T_{2i-0,5} + T_{2i+0,5})P_{2i}^{2(l)} + T_{2i+0,5}P_{2i+1}^{2(l)}}{\Delta x^2} = h_{2i}\frac{P_{2i}^{l+1} - P_{2i}^{l+1}}{\Delta\tau} + R_1 P_{2i}^{2(l+1)} - R_1 P_{1i}^{2(l+1)} - \delta_i q_i.$$
$$K_i = K_0\left[1 - a_k\left(P_0 - P_i\right)\right].$$

Olingan chekli ayirmali tenglamalar tizimi bosim funksiyasiga nisbatan chiziqsiz bo‘lgani uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechish ancha murakkab, shu sabab tenglamalarga kvazichiziqli usulni qo‘llaymiz [5]. Kvazichiziqli usulga ko‘ra tenglamani nochiziq qismlarini quyidagicha yozish mumkin:

ISSN 3030-3907

$$\varphi(P) \cong \varphi(\tilde{P}) + (P - \tilde{P})\frac{\partial \varphi(\tilde{P})}{\partial P}. \qquad (9)$$

Bunda $\tilde{P}-$ funksiyasi P ning taqribiy qiymati bo‘lib, u iteratsion jarayonda aniqlanadi. Agar (9) formulani bosim funksiyasiga nisbatan yozadigan bo‘lsak, u holda quyidagi formulalarga ega bo‘lamiz:

$$P_{1i}^{2(l+1)} = 2\tilde{P}_{1i}^{(l+1)}P_{1i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l+1)}; \qquad P_{2i}^{2(l+1)} = 2\tilde{P}_{2i}^{(l+1)}P_{2i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{2i}^{2(l+1)}.$$

$$\frac{T_{1i-0,5}(2\tilde{P}_{1i-1}^{(l)}P_{1i-1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i-1}^{2(l)}) - (T_{1i-0,5} + T_{1i+0,5})(2\tilde{P}_{1i}^{(l)}P_{1i}^{(l)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l)}) + T_{1i+0,5}(2\tilde{P}_{1i+1}^{(l)}P_{1i+1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i+1}^{2(l)})}{\Delta x^2} =$$

$$= h_{1i}\frac{P_{1i}^{l+1} - P_{1i}^{l+1}}{\Delta\tau} - R_1(2\tilde{P}_{2i}^{(l+1)}P_{2i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{2i}^{2(l+1)}) + R_1(2\tilde{P}_{1i}^{(l+1)}P_{1i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l+1)});$$

$$\frac{T_{2i-0,5}(2\tilde{P}_{2i-1}^{(l)}P_{2i-1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i-1}^{2(l)}) - (T_{2i-0,5} + T_{2i+0,5})(2\tilde{P}_{2i}^{(l)}P_{2i}^{(l)} - \tilde{P}_{2i}^{2(l)}) + T_{2i+0,5}(2\tilde{P}_{2i+1}^{(l)}P_{2i+1}^{(l)} - \tilde{P}_{2i+1}^{2(l)})}{\Delta x^2} =$$

$$= h_{2i}\frac{P_{2i}^{l+1} - P_{2i}^{l+1}}{\Delta\tau} + R_1(2\tilde{P}_{2i}^{(l+1)}P_{2i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{2i}^{2(l+1)}) - R_1(2\tilde{P}_{1i}^{(l+1)}P_{1i}^{(l+1)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l+1)}) - \delta_i q_i.$$

$$K_i = K_0\left[1 - a_k\left(P_0 - P_i\right)\right].$$

bu yerda $R_1 = \dfrac{K_{\Pi 1}L^2}{h_{\Pi 1}h_x^2}$.

Ushbu tenglamalar tizimida $P_{1i,j}^{(s)} = \tilde{P}_{1i,j}^{(l+1)}$, $P_{2i,j}^{(s)} = \tilde{P}_{2i,j}^{(l+1)}$ belgilashlarni kiritamiz va iteratsiya jarayonini quyidagi shartga qadar davom ettiramiz:

$$\left|P_{1i,j}^{(s)} - P_{1i,j}^{(s-1)}\right| < \varepsilon, \ \left|P_{2i,j}^{(s)} - P_{2i,j}^{(s-1)}\right| < \varepsilon.$$

Bu tenglamalar tizimida belgilashlarni kiritib, uni P_{1i}^{l+1}, P_{2i}^{l+1} noma’lumlarga nisbatan quyidagicha yozish mumkin (qulaylik uchun $(l+1)$ yuqori indeksni tushirib qoldiramiz, ya’ni P_{1i}^{l+1}, P_{2i}^{l+1} larni P_{1i}, P_{2i} ko‘rinishida yozamiz):

$$\begin{cases} \alpha_{1i}^{'}P_{1i} + \alpha_{2i}^{'}P_{2i} = \beta_{1i}^{'} \\ \alpha_{1i}^{''}P_{1i} + \alpha_{2i}^{''}P_{2i} = \beta_{1i}^{''} \end{cases}$$

Bu yerda :

$$\alpha_{1i}^{'} = h_{1i} + R_1\Delta\tau 2\tilde{P}_{1i}^{(l+1)}, a_{2i}^{'} = -R_1\Delta\tau 2\tilde{P}_{2i}^{(l+1)}$$

$$\beta_{1i}^{'} = h_{1i}P_{1i}^{l} - \Delta\tau R_1\tilde{P}_{2i}^{(l+1)} + \Delta\tau R_1\tilde{P}_{1i}^{(l+1)} + (\Delta\tau/\Delta x^2)*$$

$$*\left(\left[T_{1i-0,5}(2\tilde{P}_{1i-1}^{(l)}P_{1i-1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i-1}^{2(l)}) - (T_{1i-0,5} + T_{1i+0,5})(2\tilde{P}_{1i}^{(l)}P_{1i}^{(l)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l)}) + T_{1i+0,5}(2\tilde{P}_{1i+1}^{(l)}P_{1i+1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i+1}^{2(l)})\right]\right);$$

$$\alpha_{1i}^{''} = -R_1\Delta\tau 2\tilde{P}_{1i}^{(l+1)}; \ a_{2i}^{''} = h_{1i} + R_1\Delta\tau 2\tilde{P}_{2i}^{(l+1)};$$

$$\beta_{2i}^{''} = h_{2i}P_{2i}^{l} - \Delta\tau R_1(\tilde{P}_{1i}^{2(l+1)} - \tilde{P}_{2i}^{2(l+1)}) + (\Delta\tau/\Delta x^2)*$$

$$*\left(\left[T_{1i-0,5}(2\tilde{P}_{1i-1}^{(l)}P_{1i-1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i-1}^{2(l)}) - (T_{1i-0,5} + T_{1i+0,5})(2\tilde{P}_{1i}^{(l)}P_{1i}^{(l)} - \tilde{P}_{1i}^{2(l)}) + T_{1i+0,5}(2\tilde{P}_{1i+1}^{(l)}P_{1i+1}^{(l)} - \tilde{P}_{1i+1}^{2(l)})\right]\right) - \delta_i q_i.$$

Bu tenglamalar tizimini P_{1i}, P_{2i} ga nisbatan Gauss usulida echib, ichki nuqtalarda bosim funksiyasi quydagicha aniqlanadi:

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases}\alpha_{1i}^{'}P_{1i}+\alpha_{2i}^{'}P_{2i}=\beta_{1i}^{'}\\ \alpha_{1i}^{''}P_{1i}+\alpha_{2i}^{''}P_{2i}=\beta_{2i}^{''}\end{cases}$$

$$P_{1i}=\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}P_{2i};$$

$$\alpha_{1i}^{''}\left(\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}P_{2i}\right)+\alpha_{2i}^{''}P_{2i}=\beta_{2i}^{''};\quad \alpha_{1i}^{''}\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\alpha_{1i}^{''}\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}P_{2i}+\alpha_{2i}^{''}P_{2i}=\beta_{2i}^{''};$$

$$\alpha_{1i}^{''}\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\beta_{2i}^{''}=\left(\alpha_{1i}^{''}\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\alpha_{2i}^{''}\right)P_{2i};$$

$$P_{2i}=\frac{\alpha_{1i}^{''}\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\beta_{2i}^{''}}{\alpha_{1i}^{''}\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\alpha_{2i}^{''}};\quad P_{1i}=\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\alpha_{2i}^{'}\left(\frac{\alpha_{1i}^{''}\frac{\beta_{1i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\beta_{2i}^{''}}{\alpha_{1i}^{''}\frac{\alpha_{2i}^{'}}{\alpha_{1i}^{'}}-\alpha_{2i}^{''}}\right).$$

Bosim funksiyalarining chegaraviy nuqtadagi qiymatlarini topish uchun chegaraviy shartlarni chekli ayirmali tenglamalar ko‘rinishida yozamiz:

$$\begin{cases}(3k_{10}h_{10}-2\Delta x\alpha\lambda)P_{10}-4k_{11}h_{11}P_{11}+k_{12}h_{12}P_{12}=2\Delta x\alpha\lambda P_A;\\ (3h_{1n}k_{1n}-2\Delta x\alpha\lambda)P_{1n}-4k_{1n-1}h_{1n-1}P_{1n-1}+k_{1n-2}h_{1n-2}P_{1n-2}=-2\Delta x\alpha\lambda P_A;\end{cases}$$

$$\begin{cases}(3k_{20}h_{20}-2\Delta x\alpha\lambda)P_{20}-4k_{21}h_{21}P_{21}+k_{22}h_{22}P_{22}=2\Delta x\alpha\lambda P_A;\\ (3k_{2n}h_{2n}-2\Delta x\alpha\lambda)P_{2n}-4k_{2n-1}h_{2n-1}P_{2n-1}+k_{2n-2}h_{2n-2}P_{2n-2}=-2\Delta x\alpha\lambda P_A;\end{cases}$$


Bu yerdan

$$P_{10}=\frac{4k_{11}h_{11}P_{11}-k_{12}h_{12}P_{12}+2\Delta x\alpha\lambda P_A}{3k_{10}h_{10}-2\Delta x\alpha\lambda};\qquad P_{1n}=\frac{4k_{1n-1}h_{1n-1}P_{1n-1}-k_{1n-2}h_{1n-2}P_{1n-2}+2\Delta x\alpha\lambda P_A}{3k_{1n}h_{1n}-2\Delta x\alpha\lambda};$$

$$P_{20}=\frac{4k_{21}h_{21}P_{21}-k_{22}h_{22}P_{22}+2\Delta x\alpha\lambda P_A}{3k_{20}h_{20}-2\Delta x\alpha\lambda};\qquad P_{2n}=\frac{4k_{2n-1}h_{2n-1}P_{2n-1}-k_{2n-2}h_{2n-2}P_{2n-2}+2\Delta x\alpha\lambda P_A}{3k_{2n}h_{2n}-2\Delta x\alpha\lambda}.$$

Bosim funksiyalarining chegaraviy nuqtadagi qiymatlari har bir vaqt oralig‘ida aniqlab boriladi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. O‘zaro dinamik bog‘langan g‘ovak muhitlarda gaz filtratsiya chegaraviy masalasini echish algoritmi blok-sxema chizmasi.

4. Hisoblash algoritmi quyidagicha amalga oshiriladi:

ISSN 3030-3907

1. Boshlang‘ich ma’lumotlar qiymatlarini berish:

– vaqt bo‘yicha takrorlanishlar soni - nt

– o‘tkazuvchanlik koeffitsentlari qiymati – $K_1,\ K_2, K_{П1}$.

– g‘ovaklik koeffitsienti qiymati - m;

– qatlam uzunligi - L;

– neft qovushqoqlik koeffitsienti qiymati - μ;

– quduqlar debiti - q;

– neftning qatlamlardagi boshlang‘ich bosimi – $P_1,\ P_2$.

O‘zgaruvchilarni o‘lchamsiz qiymatlarga o‘tkazish;

3. Vaqt bo‘yicha takrorlash sikli $l = 1...nt$;

4. Tenglamalar tizimi koeffitsientlarini hisoblash $a_1^{'},\ a_1^{''},\ a_2^{'},\ a_2^{''},\ b_1^{'},\ b_2^{''}$

5. $P_{1i},\ P_{2i},\ (i = 1, n-1)$ qatlam bosim qiymatlarini $l+1$- vaqt oralig‘i uchun hisoblash.

6. $P_{10},\ P_{20},\ P_{1n},\ P_{2n}$ bosim qiymatlarini o‘ng va chap chegaralarda hisoblash.

Topilgan $l+1$vaqt oralig‘idagi echimlar keyingi $l+2$ qadam uchun boshlang‘ich bo‘ladi.


7. Sonli natijalarni jadval va grafik ko‘rinishlarida ekranga chiqarish.

8. Vaqt bo‘yicha takrorlanish sikli oxiri.


5. Hisoblash tajribalari

Sust o‘tkazuvchan qatlam bilan o‘zaro bog‘langan ikki qatlamli gaz filtratsiya tizimida g‘ovak muhitning ikkinchi qatlamidan gaz qazib olish jarayonida yuqori va pastki qatlamlarda bosim o‘zgarishiga bo‘lgan ta’sirni o‘rganish maqsadida kompyuterda hisoblash tajribalari o‘tkazilib, tahlil qilingan. Hisoblash tajribalari aniq dastlabki kiritiladigan parametrlar bilan amalga oshirilgan: har ikkala qatlamning uzunligi L_x = *10000 m;* gaz qatlamlarining boshlang‘ich bosimi P_1=*300 kg/sm*^{2}, P_2=*300 kg/sm*^{2}*;* gazning qovushqoqlik koeffitsienti μ=*0.001*; g‘ovaklik koeffitsienti m=0.1; ikkinchi gaz qatlamida quduqlar bir xil debitga teng, ya’ni Q=*500000m*^{3}*/sut*. Gaz qatlamlarida bosimning tarqalishi bo‘yicha hisoblash tajribalari 360, 720 va 1080 kun davomida o‘tkazilgan. Hisoblash tajribalari natijalari asosan qatlamlar o‘tkazuvchanlik koeffitsientlarining turli qiymatlarida hamda quduqlar debiti bo‘yicha olingan bo‘lib ular asosida tahlillar qilingan.

ISSN 3030-3907




2-rasm. Qatlamlarda bosim tarqalish dinamikasi va tushishi. *n=41, t=1080 sutka* (*K_{10}=0.2; K_{20}=0.1; $K_{П1}$=0.0002; μ=0.0009, $Q_{1,2,3}$=500000m^3/sut*)




3-rasm. Qatlamlarda bosim tarqalish dinamikasi va tushishi. *n=41, t=1080 sutka* (*K_{10}=0.2; K_{20}=0.1; $K_{П1}$=0.0003; μ=0.001, $Q_{1,2,3}$=500000m^3/sut*)

ISSN 3030-3907



4-rasm. Qatlamlarda bosim tarqalish dinamikasi va tushishi. *n=81, t=1080 sutka* (*K_{10}=0.2; K_{20}=0.1; $K_{П1}$=0.00009; μ=0.001, $Q_{1,2,3,4,5}$=300000m^3/sut*)



4-rasm. Qatlamlarda bosim tarqalish dinamikasi va tushishi. *n=81, t=1820 sutka* (*K_{10}=0.2; K_{20}=0.1; $K_{П1}$=0.00009; μ=0.001, $Q_{1,2,3,4,5}$=300000m^3/sut*)

6. Xulosa

Ikki qatlamli o‘zaro dinamik aloqadagi g‘ovak muhitlarda gaz filtratsiya chegaraviy masalasi echishda hisoblash tajribalari shuni ko‘rsatdiki, sust o‘tkazuvchan qatlam o‘tkazuvchanlik parametrining qiymati qancha kichik bo‘lsa, yuqori qatlamda bosim tushishi juda kam bo‘ladi va bu tushish faqat ikkinchi qatlamdagi quduq joylashgan joylarga ta’siri bo‘ladi. Kompyuter modellashtirish va hisoblash tajribalarining o‘tkazilishi qatlam parametrlarining har xil parametrlarida ko‘p qatlamli gaz konlarini o‘zlashtirishda uning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Olingan sonli natijalar esa dinamik

ISSN 3030-3907

aloqaga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli neft-gaz konlarining rivojlanishini tahlil qilish uchun foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.И. Молчанов “Машинные методы решения прикладных задач дифференцалные уравнения” Киев 1988. - 343 с.
2. С.Н. Закиров, Б.Б. Лапук “Проектирование и разработка газовых месторождений”. - М.: Наука, 1974. – 376 с.
3. E.Nazirova, M. Mahmudova, A.Nematov. “Ikkinchi tartibli parabolik tipli tenglamalarga qo‘yilgan chegaraviy masalani yechish algoritmi va sonli natijani vizuallashtirish dasturi” «Muhammad al-Xorazmiy avlodlari» ilmiy- amaliy va axborot-tahliliy jurnali, 3(17)/2021. -Б. 21-25
4. E.Nazirova, A.Nematov, M.Mahmudova, X.Karabayeva“ Algoritm and program for solving the gas filtration problem in dynamically interconnected porous media”// J.: “Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies”. Vol-3(13), 2022. –5p.
5. Э.Назирова, А.Нематов, М.Шукурова. “Численное моделирование задачи двухфазной филтратсии в системе нефт издается раз в год-газ”. Проблемы вычислителной и прикладной математики. №6(45) 2022.
6. E.Nazirova, A. Nematov, M. Shukurova “Numerical simulation of the problem of two-phase filtration in the oil-gas sestim”. Har. Yedu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.3. Issue 1 Pages 1-17.
7. М.Б Ходжимуродова. 2018 “Свойства решений задачи Коши для вырожденных нелинейных перекрестных систем с конвективным переносоми поглощением Алгебра, комплексный анализ и теория плюрипотенциала”. УСУЗСАМП 2017. 264 183 190 ҳттпс://доиорг/10.1007/978-3-030-01144-4_15 Гоогле Счолар
8. E.Nazirova, A. Nematov, R.Sadikov 2021 “On numerical method for modeling oil filtration problems in piecevise-inhomogeneous porous medium”. https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1757- 899X/1032/1/012018
9. E.Nazirova, A.Nematov, R.Sadikov, I.Nabiyev 2021 “One-Dimensional Mathematical Model and a Numerical Solution Accounting Sedimentation of Clay Particles in Process of Oil Filtering in Porous Medium”. https://link.springer.com/chapter/10.1007%2F978-3- 030-68449-5_35
10. Н.Равшанов, Э.Назирова, А. Нематов, “Моделирование процессов филтратсии жид костей и газа в пористых средах”. // Ташкент – 2021. – С. 2017.10_14
11. E.Nazirova, A.Nematov Numerical models and algorithms solution of gas filtration problems in porous medium. // Chisinau-2068, Republic of Moldova, Yeurope – Vol. 70, No. 35 – P. 70.

ISSN 3030-3907

12. E.Nazirova, A.Nematov, R.Sadikov, Sh.Ismailov “Visualization of the Results of Computing Yexperiments for Monitoring and Analysis of Filtration Processes In A Non-General Layer of Oil Fields” –2021. – P. 1- 4. – URL: https://ieeexplore.ieee.org/document/9670239.
13. Н.Равшанов, Э.Назирова “Численное решение двумерных задач филтратсии нефти в двухпластовых пористых средах”. // Современные технологии в нефтегазовом деле; Ма териалы Международной научно-технической конференции – Изд. УГНТУ – 2018. – Том 1 – С. 152-155.

ISSN 3030-3907

VODOROD-HAVO ARALASHMASINI RATSIONAL SHAKILLANTIRISH BILAN DIZELLARINING EKSPLUATATSION KO‘RSATKICHLARINI OSHIRISH

Ismatov Jumaniyoz Fayzullayevich
Candidate of technical sciences, associate professor. Tashkent State Technical University named after of Islom Karimov. Uzbekistan, Tashkent
Email: jumaniyoz132@mail.ru
Qurbonov Xurshid Azamatovich
Applicant, Tashkent State Transport University, Uzbekistan, Tashkent
Email: xurshid.qurbonov7177@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada tizim tahlilidan foydalangan holda ichki yonuv dizel dvigatellaridan foydalanishning dolzarb masalalari yoritilgan. Dizel dvigatelli transport vositalari yoqilg‘i-havo aralashmasiga vodoroddan qo‘shimcha sifatida foydalanib majburiy yonishi, gaz va elektr stantsiyalari bilan taqqoslaganda yanada ishonchli, tejamkor, ekologik toza va turli xil iqlim sharoitlariga moslashtirilgan sharoitlar ko‘rib chiqiladi. Dizel yoqilg‘isiga vodorod qo‘shilishi yonish davrlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish chiqindi gazlar tarkibidagi zararli tarkibiy qismlarni kamaytirishga, dvigatel shovqinini kamaytirishga va ichki yonuv dvigatelining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: dizel dvigatel, tizimlarni tahlil qilish, atrof-muhit xavfsizligi, yonish jarayoni, vodoroddan qo‘shimcha foydalanish, yonish davrlari, vodorodning kuyikishlarga ta’siri.

Annotation: This article covers current issues of using internal combustion diesel engines using System Analysis. Forced combustion of diesel-powered vehicles using hydrogen as an additive to the fuel-air mixture, more reliable, economical, environmentally friendly and adapted conditions in comparison with gas and power plants are considered. The addition of hydrogen to diesel fuel helps to properly organize and control combustion cycles, reduce harmful components in the composition of exhaust gases, reduce engine noise and increase the efficiency of the internal combustion engine.

Keywords: diesel engine, systems analysis, environmental safety, combustion process, additional use of hydrogen, combustion cycles, effects of hydrogen on burns.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы применения дизельных двигателей внутреннего сгорания с использованием системного анализа. Рассматриваются более надежные, экономичные, экологически чистые и адаптированные к различным климатическим условиям условия принудительного сгорания дизельных транспортных

ISSN 3030-3907

средств с использованием водорода в качестве добавки к топливно-воздушной смеси, по сравнению с газовыми и электрическими установками. Добавление водорода к дизельному топливу правильная организация и управление циклами сгорания помогают уменьшить вредные компоненты в выхлопных газах, снизить шум двигателя и повысить эффективность работы двигателя внутреннего сгорания.

Ключевые слова: дизельный двигатель, системный анализ, экологическая безопасность, процесс горения, дополнительное использование водорода, циклы горения, влияние водорода на ожоги.

Kirish.

Hozirgi vaqtda dizel dvigatellari yuqori samaradorligi, ishonchliligi, ishlab chiqarish qobiliyati va tejamkorligi tufayli qishloq xo‘jaligida, transportda va sanoatda keng qo‘llaniladi. Shunga qaramay, dizel yoqilg‘isi parkining ko‘payishi atrof-muhitning ifloslanishi va neftni dvigatel yoqilg‘isi sifatida iste‘mol qilinishi asosiy kamchilik deb ko‘riladi.

Yoqilg‘idan foydalanish muammolarini yumshatish uchun bir nechta yechimlar mavjud, ammo ularning aksariyati ko‘p yillik rivojlanish va qo‘shimcha infratuzilmani talab qiladi.

Yoqilg‘ining fizik-kimyoviy xususiyatlari teng bo‘lsa, ichki yonuv dvigatelining chiqindi gazlaridagi toksik moddalarning tarkibi va aralashma darajasiga bevosita ta’sir qiluvchi omil bu, an’anaviy uglevodorod yoqilg‘ilari bilan taqqoslaganda yonish jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan hal qiluvchi parametrlar normal tarqalish tezligi va olovni o‘chirish masofasi[2], energiya hamda alangalanish konsentratsiyasi chegaralari darajasiga vodorod noyob fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Nashrlarni tahlil qilish.

Vodorodning an’anaviy uglevodorod yoqilg‘ilariga nisbatan asosiy xususiyatlari 1 va 2-jadvalda keltirilgan. Taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, uglevodorod yoqilg‘isiga nisbatan vodorod eng yuqori energiya massasi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval

Yoqilg‘ining asosiy fizik-kimyoviy xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	Dizel	Propan	Butan	Metan	Benzin	Vodorod
H_u MJ/kg	42,5	46,35	45,75	50	44	120
ρ, кг/м^3 dan t=0^0, p=1 gacha.	840	502	578	0,66	750	0,092
Setan soni	40-55	5	12	-	-	-
O‘z-o‘zidan alangalanish harorati, ^{0}C	280	507	431	650	415	570

ISSN 3030-3907

Oktan soni	-	111,5	95	130	92	90-95
I_0, kg/kg	14,4	15,8	15,6	17,4	14,96	34,8
H_u/I_0, MJ/kg	2,95	2,93	2,93	2,87	2,94	3,44
Qaynash nuqtasi (chegaralari) ^{0}C	180-370	-42	-0,6	-162	35190	-252,8
Portlash chegaralari (havodagi gazning %)	0,6-6,5	2,05-11,38	1,68-10,3	5-15	1,5-5,9	4-76
Ko‘rinadigan molekulyar massa, μ	180-200	44,097	58,124	16,0	110-120	2
Uglerodning massa ulushi	0,86	0,817	0,827	0,75	0,855	0
Vodorodning massa ulushi	0,14	0,183	0,173	0,25	0,145	1
Kislorodning massa ulushi	0	0	0	0	0	0

Molekulyar vodorodning eng past yonish issiqligi (suv bug‘ini hosil qilish bilan) 241,9 MJ/mol ni tashkil qiladi, bu 120 MJ/kg ga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, vodorod an’anaviy uglevodorod yoqilg‘ilaridan taxminan 2,5÷3 baravar katta. Biroq, vodorodning juda past zichligi tufayli uning hajmli energiya xususiyatlari past[3].

2-Jadval

Vodorod va dizelning asosiy fizik-kimyoviy xossalari

Ko‘rsatkichlar	Vodorod	Dizel
Yonish xususiyatlari		
Issiqlik ishlab chiqarish MJ/kg	3,39	2,75
Kalorimetrik harorat, K	2508	2316
Oddiy olov tezligi, m/s	2,59	0,34
Yonishni qayta taqsimlash: - aralashmaning tarkibi	0,14…10,1	0,59…1,99
bo‘yicha, α	4…75	5…15
- havodagi volumetrik ulush bo‘yicha, %	858	815
O‘z-o‘zidan alangalanish harorati, K	0	5
Diffuzion olovning qora ko‘rsatkichi		
Energetik xususiyatlari		
Past yonish issiqligi, MJ/kg	120,0	50,1
Yoqilg‘i yonishining issiqlik ta’siri, MJ/kg	116,1	50,0
50 %lik yonishning termal ta’siri, MJ/kg	116,0	48,8
Suyuq yoqilg‘ining energiya sig‘imi, MJ/m^3	8220	20594
50 % lik energiya quvvati, MJ/m^3	9060	21301
Stoxiometrik koeffitsient	34,38	17,21

ISSN 3030-3907

Stoxiometrik havo miqdori kg/kg	2,7	0,4
Havoda maksimal yonish harorati, K	2503	2340

H_2-CH_4 aralashmasi uchun diffuziya koeffitsiyenti 273K uchun $62,5 \cdot 10^{-6}$ m^2/s, 298 K uchun $72,6 \cdot 10^{-6}$ m^2/s ni tashkil qiladi.

Umuman olganda, HHO yoki vodorod ideal nisbatda yoqilg‘i va oksidlovchi ekanligini hisobga olsak barcha chiqindi gazlarni qoldiqsiz yoqib yuboradi, faqat suv bug‘ini(kislorod emas) qoldiradi[4].

Maqsad va muammoning bayoni.

Dvigatelga vodorodni to‘g‘ridan-to‘g‘ri silindrga, ushbu maqsadlar uchun maxsus ishlab chiqilgan elektron boshqariladigan valfli nozullar orqali yetkazib berishni ta’minlaydi, asosiy yonilg‘i tizimi orqali yuborilgan yoqilg‘ining bir qismini o‘z-o‘zidan yonish orqali ishchi aralashmani yoqadi. Dizel-vodorod dvigatelining eksperimental tadqiqotlari taklif qilingan yoqilg‘i ta’minoti tizimining ishlashini va dizel yoqilg‘isiga massa bo‘yicha 5% dan 45% gacha vodorod qo‘shilishi bilan ish jarayonini tashkil etish imkoniyatini beradi.

Harorat va bosimga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan normal yonish tezligining yuqori qiymatlari fizik-kimyoviy yonish jarayonlarining davomiyligini qisqartirishga imkon beradi, dvigatelning chiqindi gazlarida CH_x ning maqbul aralashma bilan NO_x chiqindilarining kontsentratsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoqilg‘i yonish jarayonining davomiyligini qisqartirish bilan fizik-kimyoviy jarayonlarning kuchayishi dvigatelning samaradorligini oshiradi. Vodorod-havo aralashmalarida olovning normal tarqalish tezligining maksimal qiymatlari turli baholarga ko‘ra 24-270 sm/s ni tashkil qiladi va haroratga juda ham bog‘liq bo‘ladi (4-jadval). Vodorodning o‘z-o‘zidan yonish harorati aralashmaning tarkibiga bog‘liq va stoxiometrik tarkibi uchun 500-510 °C ni tashkil qiladi [9].

Aralashmadagi vodorod kontsentratsiyasining o‘zgarishi (CH_4+H_2) issiqlik chiqarish xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladi; xususan, Vodorod tarkibining ko‘payishi yonish davomiyligini keskin qisqartiradi.

Vodorod-havo aralashmasining yuqori yonish tezligi va dvigatel silindrlarida bosimning yuqori tezligi dvigatelning indikator samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Vodoroddan foydalaniladigan ichki yonuv dvigatelining ish oqimi xususiyatlari vodorod – havo aralashmasining xususiyatlari – olov jabhasining yonishi va tarqalish chegaralari, olov harorati va energiyasi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning barchasi vodorodda uglevodorod yoqilg‘isiga qaraganda yaxshiroqdir (5-jadval) [13].

Uglevodorodlarga qaraganda deyarli kattaroq olov tezligiga ega bo‘lgan vodorod o‘ziga xos “oldindan yonish” katalizatori vazifasini bajarib, ishchi aralashmani yoqib yuboradi va qisqa vaqt ichida to‘liq yonish, ko‘proq bosim va

ISSN 3030-3907

issiqlik energiyasini ta’minlaydi, bu esa momentning oshishiga yordam beradi [14]. Yoqilg‘ining to‘liq yonishi bilan chiqindi gazlardagi zararli moddalar chiqindilari kamayadi.

Vodorodning pastki tutashuv chegarasi neft yoqilg‘isidan bir necha baravar yuqori, bu esa neft yoqilg‘isida ishlaydigan ichki yonuv dvigatellariga nisbatan yuqori samaradorlikga erishish imkonini beradi.

Yoqilg‘i sarfini quyidagicha aniqlaymiz:

$$g_t = \frac{G_b + G_{H_2} \cdot G_H H_2 \,/\, G_{H_b}}{N_e} \qquad (8)$$

bu yerda G_b, G_{H_2} – mos ravishda dizel va vodorod iste’moli, g/soat; $G_H H_2$, G_{H_b} – mos ravishda vodorod va dizelning pastki yonish issiqliklari; N_e-dvigatelning samarali quvvati [15].

Natijalar.

Yoqilg‘ining fizik-kimyoviy xususiyatlari, boshqa barcha ko‘rsatkichlar teng bo‘lsa, ichki yonuv dvigatelining chiqindi gazlaridagi toksik moddalarning tarkibi va aralashma darajasiga bevosita ta’sir qiladi. An’anaviy uglevodorod yoqilg‘ilari bilan taqqoslaganda yonish jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan hal qiluvchi parametrlar normal tarqalish tezligi va olovni o‘chirish masofasi, energiya va harorat kontsentratsiyasi chegaralarini normallashtirish uchun vodorod bu jihatdan noyob fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega.

Vodorod boshqa moddalardan ajratishning bir necha usullari mavjud, biz eng keng tarqalganlarini sanab o‘tamiz:

1. Elektroliz, bu usul eng sodda va uyda amalga oshirilishi mumkin. Tuzni o‘z ichiga olgan suvli eritma orqali doimiy elektr toki o‘tkaziladi, uning ta’siri ostida reaktsiya sodir bo‘ladi, uni quyidagi tenglama bilan tavsiflash mumkin: $2NaCI+2HH_2 \rightarrow 2NaOH+CI_2+H_2\uparrow$. Bunday holda, oddiy oshxona tuzining eritmasi uchun misol keltirilgan, bu eng yaxshi variant emas, chunki chiqarilgan xlor zaharli modda bo‘lib ushbu usulda olingan Vodorod eng toza (taxminan 99,9%).

2. Suv bug‘ini 1000°C haroratgacha qizdirilgan ko‘mir koks ustiga o‘tkazish orqali quyidagi reaksiya sodir bo‘ladi: $H_2O + C \Leftrightarrow CO\uparrow + H_2\uparrow$.

3. Suv bug‘lari bilan konversiya orqali metandan qazib olish (reaksiya uchun zarur shart – harorat 1000°C): $CH_4 + H_2O \Leftrightarrow CO + 3H_2$.

Ikkinchi variant – metan oksidlanishi: $2CH4 + O2 \Leftrightarrow 2CO + 4H_2$.

4. Yorilish (neftni qayta ishlash) jarayonida vodorod yon mahsulot sifatida chiqariladi.

Shu maqsadda vodorod ishlab chiqarish uchun sanoat qurilmalari ishlab chiqariladi. Odatda, bu membrana tipidagi elektrolizatorlar. Bunday qurilmaning soddalashtirilgan dizayni va ishlash printsipi 1-rasmda keltirilgan[14].

Xulosa

ISSN 3030-3907

Dizel yoqilg‘isida uglevodorod - havo aralashmasining yonish jarayonini amalga oshirish imkoniyatini dastlabki tahlil qilish amalga oshirildi. Dvigatelning yonish kamerasiga kiritilgan vodorod juda faol radikallar - yoqilg‘i-havo aralashmasining termokimyoviy konversiya reaktsiyalarining faol qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan H_2 atomlarini hosil qilish uchun dissotsilanishga moyil ekanligi haqida dastlabki taxminlar mavjud. Bu yoqilg‘i-havo aralashmasida erkin vodorodning mavjudligi dizel dvigatelining ish sikli jarayonlarini optimal boshqarish chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi deb ishonishga asos beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. J.F. Ismatov, S.M. Qodirov, X.A. Qurbonov “Dizel dvigatellariga kompozision yonilg‘i (dizel yonilg‘isiga vodorod qo‘shish) ko‘rsatkichlarining tahlili” Kompozitsion materiallar Ilmiytexnikaviy va amaliy jurnali №2/2023. 188-192 bet
2. J.F. Ismatov, S.M. Qodirov, X.A. Qurbonov “Dizellarga vodoroddan kampozit yoqilg‘i sifatida foydalanish orqali ekologik xususiyatlarini yaxshilash” Kompozitsion materiallar Ilmiytexnikaviy va amaliy jurnali №1/2024. 201 bet
3. J.F.Ismatov, X.A.Qurbonov. “Dizel dvigatellarida braun gazidan qo‘shimcha yonilg‘i sifatida foydalanish samaradorligi” Namangan davlat texnika universiteti «MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI» Namangan № 2 (19), 2025. 153-bet
4. Авраменко А.Н., Левтеров А.М., Бганцев В.Н., Гладкова Н.Ю., Киреева В.Н. Перспективы применения микродобавок водорода для улучшения экологических показателей дизельного двигателя // Journal of Mechanical Engineering. 2019. Vol. 22. No. 2.
5. Базаров Б.И., Васидов А.Х., Аскаров И.Б., Ахматжанов Р.Н. Альтернативные энергетические источники и установки на транспорте. Учебник. - Ташкент: Изд-во ТГТрУ, 2022. -220 с.
6. Певнев Н.Г., Понамарчук В.В. Анализ свойств водорода с целью возможности его применения в качестве добавки к основному топливу // Прогрессивные технологии в транспортных системах: сб. тр. конф. Оренбург, 2015. С. 304–309.
8. Левин Ю.В. Улучшение топливной экономичности и экологичности роторно-поршневого двигателя за счет добавок свободного водорода к основному топливу: дис. … к. т. н. Волгоград, 2016.
9. Двигатели внутреннего сгорания. В 3 кн. Кн. 1. Теория рабочих процессов: Учебник для вузов / В.Н.Луканин, К.А.Морозов, А.С.Хачиян и др.; Под ред. В.Н.Луканина и М.Г.Шатрова – 3-е изд., перераб. и испр. – М.: Высшая школа, 2007. – 479 с: ил.
10. Раменский А.Ю., Шелищ П.Б., Нефедкин С.И. Применение водорода в качестве моторного топлива для автомобильных двигателей внутреннего

ISSN 3030-3907

сгорания. История, настоящее и перспективы // Альтернативная энергетика и экология. 2006. № 11. С. 63–70.

11. Олег Е.Аксютин, Александр Г.Ishков, Валерий Г.Хлопtsов, Вараздат А.Казаруан, “Концепция крупномасштабного развития инновационных систем производства и распределения метановодородного топлива как эффективного альтернативного энергоносителя” 2012

12. Fayziyev M.M., Miryunusov M.M., Orifjonov M.M., Bozorov B.I. Ichki yonuv dvigatellari. – T.: «Turon-iqbol», 2007. – 608 bet.

13. Асоян А.Р., Битюков С.И., Лебедев И.А., Асоян И.А. Использование водорода в качестве добавки к основному топливу в двигателях внутреннего сгорания // Проблемы технической эксплуатации и автосервиса подвижного состава автомобильного транспорта: сб. научн. трудов по материалам 77-й научно-методической и научно-исследовательской конференции МАДИ. М., 2019. С. 103–108.

ISSN 3030-3907

METALL KUKUNLARINI ELEKTROKONTAKT USULI YORDAMIDA DETALLAR YUZASIDA PISHIRIB QOPLASH TEXNOLOGIYALARI

Karimov Sh.Sh
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Materialshunoslik” kafedrasi professori
Mamirov Sh.Sh.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi mudiri
Nurullayev R.T.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali
“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Mashina detallarini tiklash va mustahkamlash uchun juda muhimdir. Kompozit qoplamalardan foydalanish bo‘yicha mavjud tajriba ushbu sohaning agrosanoat majmuasining mashinalari va uskunalari detallarining xizmat qilish muddatini yaxshilash. Mazkur mavzu metall kukunlarini elektrokontakt (elektr kontaktli) usuli orqali detallar yuzasiga pishirib qoplash texnologiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Elektrokontakt qoplama — bu elektr toki va bosim ta’sirida qisqa vaqt ichida metall kukunlarni detallar sirtiga mustahkam yopishtirib, yuqori sifatli qoplama hosil qilish usulidir. Ushbu texnologiya yordamida detallarning ishga chidamliligini, aşinuvga bardoshliligini va korroziyaga qarshi turg‘unligini oshirish mumkin. Mavzuda elektrokontakt usulining fizik-mexanik asoslari, issiqlik hosil bo‘lish jarayoni, elektr toki va bosimning roli, kukun materialining xossalari, hamda pishirish jarayonining texnologik rejimlari (tok kuchi, vaqt, bosim) haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, amaliyotda qo‘llanilayotgan qurilmalar, ularning tuzilishi va ishlash prinsipi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kuch, qattiqlik, egiluvchanlik, korroziyaga chidamlilik, yeyilishbardoshlik, issiqlikka chidamlilik va boshqalar.

Аннотация: Очень важна для восстановления и укрепления деталей машин. Существующий опыт использования композитных покрытий позволяет улучшить срок службы деталей машин и оборудования агропромышленного комплекса данной отрасли. Данная тема посвящена изучению технологий наплавки металлических порошков на поверхности деталей электроконтактным способом. Электроконтактное покрытие - это способ получения высококачественного покрытия путем прочного приклеивания металлических порошков к поверхности деталей за короткое время под воздействием электрического тока и давления. С помощью этой технологии можно повысить долговечность, износостойкость и коррозионную стойкость

ISSN 3030-3907

деталей. В теме дается подробная информация о физико-механических основах электроконтактного метода, процессе теплообразования, роли электрического тока и давления, свойствах порошкового материала, а также технологических режимах процесса обжига (сила тока, время, давление). Также рассматриваются устройства, используемые на практике, их устройство и принцип работы.

Ключевые слова: сила, твердость, гибкость, коррозионная стойкость, износостойкость, термостойкость и другие.

Abstract: Very important for restoring and strengthening machine parts. Existing experience in the use of composite coatings is aimed at improving the service life of parts of machines and equipment of the agro-industrial complex of this industry. This topic is devoted to the study of the technology of coating metal powders on the surface of parts by the electrocontact method. Electrocontact coating is a method of obtaining a high-quality coating by firmly adhering metal powders to the surface of parts in a short time under the influence of electric current and pressure. With the help of this technology, it is possible to increase the durability, wear resistance, and corrosion resistance of parts. The topic provides detailed information on the physical and mechanical foundations of the electrocontact method, the process of heat generation, the role of electric current and pressure, the properties of the powder material, as well as the technological modes of the cooking process (current, time, pressure). It also examines the devices used in practice, their structure, and operating principles.

Keywords: strength, hardness, flexibility, corrosion resistance, wear resistance, heat resistance, etc.

Kirish

Hozirgi vaqtda qoplash materiallarning xususiyatlariga qo‘yiladigan talablar juda xilma-xil bo‘lib qoldi, chunki detallarning ishlash sharoitlari yanada qattiq va murakkablashdi. Misol tariqasida biz materialdan talab qilinishi mumkin bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatishimiz mumkin: kuch, qattiqlik, egiluvchanlik, korroziyaga chidamlilik, yeyilishbardoshlik, issiqlikka chidamlilik va boshqalar.

Ushbu murakkab muammoni hal qilishning bir usuli yuqori ishlash xususiyatlariga ega qoplamani detallarning ishchi yuzalarga qo‘llash. Masalan, detallarni elektr kontaktli pishirish bilan tiklashda yangi detalning tegishli xususiyatlaridan (kuch, yeyilishbardoshlik, korroziyaga chidamlilik va boshqalar) ustun bo‘lgan sirt qatlamini olishga imkon beradigan kukun materialdan foydalanishingiz mumkin. EKP uchun ikkinchi yo‘nalish-qoplanuvchi material sifatida kukunli materiallardan, shu jumladan kompozit materiallardan foydalanish. Kompozit materiallarga (KM) qiziqish, bir tomondan, yuqori sifatli qotishmalar ishlab chiqarish uchun xom ashyoning cheklanganligi bilan, boshqa

ISSN 3030-3907

tomondan, KM ning noyob xususiyatlari to‘plami bilan bog‘liq bo‘lib, ular metall o‘rnida erishib bo‘lmaydigan bir qator texnik muammolarni hal qilish, materiallarning xususiyatlarini boshqarish. [1,5,6,2].

Xozirgi paytda KM qoplamalar shaklida ishlatila boshlandi, bu mashina detallarini tiklash va mustahkamlash uchun juda muhimdir. Kompozit qoplamalardan foydalanish bo‘yicha mavjud tajriba ushbu sohaning agrosanoat majmuasining mashinalari va uskunalari detallarining xizmat qilish muddatini yaxshilash istiqbollarini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, yangi avlod EKP materiallarining detallarini tiklash bo‘yicha texnologik jarayonlarning keng joriy etilishi ularni qo‘llashni asoslash, geterogen qoplamalarni loyihalash, ularni detallar yuzasiga qo‘llash uchun ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar yo‘qligi bilan cheklangan. Yagona qoplamada geterogen komponentlarning mosligini tartibga solish muammosi hal qilinmagan, bu KP ning noyob tribotexnik xususiyatlaridan to‘liq foydalanishga imkon bermaydi. [1,5,6,2,3,8,10].

Qayta tiklashning ko‘plab usullari orasida elektrkontaktli pishirib qoplash (EKP) usuli ajralib turadi. Ushbu usul jarayonning yuqori mahsuldorligiga, detalning qizishi va deformatsiyasining yo‘qligiga, termik ta’sir zonasining sayoz chuqurligiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri pishirish jarayonida qoplamaning qattiqlashishiga va jarayonning ekologik tozaligiga ega. Usulning uzoq vaqtdan beri ma’lum bo‘lishiga qaramay, EKP usulida kukunli materiallardan foydalanishning bir qator muammolari o‘z yechimini topmagan. Masalan pishirish paytida qimmatbaho kukunning yo‘qolishi, yeyilish darajasiga qarab qoplamaning qalinligini tartibga solish, kukun aralashmasidan foydalanish qiyinligi, qiyin eriydigan kukunlarning yuqori adgeziyasini ta’minlash. Qoplamalarning detal yuzasi bilan bog‘lanish kuchi va yemirilishga chidamliligi masalalari kam o‘rganilgan bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, EKP magnit maydonining kukunning ferromagnit zarralariga ta’siri masalasi o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda, uning yechimi bunker-dozatorning chiqish kanali soplosining optimal holatini hisoblash orqali kukun yo‘qotilishini kamaytirishga imkon beradi.

Elektrokontaktli pishirish issiq presslash jarayonining bir turidir [4,12,15,].An’anaviy kukun metallurgiya texnologiyasidan farqli o‘laroq, kontakt qarshiligi orqali elektr tokining to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishi pishirilgan materialning xususiyatlarini aniqlaydigan jarayonlarni faollashtiradi va tezlashtiradi. Qisqa vaqt ichida elektr qizdirish ta’sirida kukun plastik bo‘lib, osonlik bilan deformatsiyalanadi. Elektrokontaktli pishirishda ham issiq presslashda, ham bosimli payvandlashda sodir bo‘ladigan jarayonlar ustunlik qiladi. Jarayonlarning har birining ishtirok etish darajasi har xil va harorat, bosim, vaqt, material darajasi va boshqalarga bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘rib chiqilayotgan

ISSN 3030-3907

texnologiyada pishirishning davomiyligi issiq presslashdan ancha qisqaroq, ammo ishlatiladigan bosimlar bir xil bo‘ladi [7,9,5].

Elektr tokini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish bilan metall kukunlarini pishirishning birinchi usuli 1933 yilda Teylor qurilmasi tomonidan patentlangan. Teylor metall kukuni bilan to‘ldirilgan izolyatsion materialdan yasalgan truba va ikkita plunjer - elektroddan iborat edi.

Keyinchalik Jons qarshilik asosida pishirish texnologiyasini ko‘rib chiqdi va bosimli payvandlash uskunasidan foydalanishni taklif qildi.1939 yilda A.N.Ryaguzov kukunni eritish haroratiga elektr bilan bog‘lanish asosida metall kukunini qism yuzasiga to‘plash usulini birinchi bo‘lib taklif qildi. Keyinchalik I.S.Pekker avtomobil ilakish diskining po‘lat qismlariga karbid kukuni qatlamini qo‘llash usulini ko‘rib chiqdi. Uning texnologiyasida u ikkita rolikli elektroddan, himoya atmosferasidan va sovutish suvi bilan isitish joyini doimiy o‘chirishdan foydalangan.

Kremer 1944 yilda kontaktli payvandlash uskunalari yordamida bosim ostida kukunni elektroimpuls bilan pishirish usulini tasvirlab berdi. Kremer tajribalarida asosan mis, bronza va alyuminiy kabi ferromagnit bo‘lmagan kukunlardan foydalanilgan. [10,12]

1945 yilda Rossom yuqori bosim va o‘zgaruvchan elektr tokining o‘zgartirilgan parametrlari bilan elektroimpulsli pishirish usulini patentladi. Bosim ostida elektrokontaktli pishirishning asosiy nazariy va texnologik masalalari Lenel tomonidan ko‘rib chiqildi va kukunlarni elektrokontaktli pishirish uskunalariga qo‘yiladigan talablar shakllantirildi.

Keyingi ishlardan Shepard va Kroft ishlarini qayd etish lozim. Titan, bor va kremniy karbidlari, titan boridlari va alyuminiy oksidi asosidagi qattiq qotishma kukunlarini pishirish misolidan foydalanib, ular elektrokontaktli pishirish texnologiyasining yuqori samaradorligini namoyish etdilar. Aniqlanishicha, bu jarayonning asosiy afzalliklari yuqori unumdorlik, kam energiya sarfi, past g‘ovaklik va mayda dispersli tuzilishga ega pishirilgan namunalarni olish imkoniyatidir. Biroq, Shepard va Kroft katta o‘lchamdagi detallarni olish uchun elektrokontaktli pishirish texnologiyasining imkoniyatlari haqida salbiy fikrga ega bo‘ldilar.

Sof metallarning kukunlari va qattiq qotishma birikmalaridan namunalarni pishirishdan tashqari, bosim ostida elektrokontaktli pishirish antifritsion materiallarni ishlab chiqarish uchun xam qo‘llanilishi mumkinligi aniqlandi. Qalayli bronza $CuSn_{10}$ dan detallarini ishlab chiqarish usuli ishda yoritilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati elektr tokidan foydalanish, zichligi 70 A/mm^2 dan oshmaydigan pishirish va qizdirish vaqti qisqa (45 minutgacha) hisoblangan.

ISSN 3030-3907

I.D.Radomыselskiy va Ye .V.Rmorov kukun metallurgiya va elektr qarshilik payvandlash usullarini birlashtirish bilan bimetalik mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun yuqori samarali texnologik jarayonlarni yaratish imkoniyatlarini o‘rganib chiqdi va istiqbollarini isbotladi.

Metall kukunlari bilan yeyilgan detallarni qayta tiklash uchun elektrokontaktli pishirish jarayonini amalga oshirishda, qo‘llaniladigan qatlamning optimal xususiyatlariga erishish va uni saqlab qolish uchun kukun zarralarini qizdirish harorati $(0,8\div0,9)T_e$ bo‘lishi kerakligi aniqlandi. Shunga asoslanib, jarayon elektrokontaktli pishirish deb ataldi. Hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan turli xil jihozlar, qoplamalar uchun materiallarga qaramay, barcha turdagi EKP uchun umumiy xususiyat - bu katta elektr toki ta’siri Joul lens issiqlik va yuklanish o‘tishi paytida chiqadigan issiqlik energiyasining qoplama-asos birikmasi zonasida chiqarilishi [4,7,9]. Detallarning o‘lchamlariga qarab, qoplamaning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’minlash zarurati elektrokontaktli tiklash va qotib qolish usullarida, turli xil qattiq materiallar, metall kukunlari, kermetlar, shuningdek ishlatiladigan materiallarning kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Pishirish zonasiga kukunlarni erkin tushishi orqali metall kukunlarini elektrokontaktli pishirish I.E. Ulman rahbarligida ChIMESX da ishlab chiqilgan [8,3].

Elektrokontakt usuli bilan qoplanadigan kukun qoplamalari yuqori fizik-mexanik xususiyatlarga ega (birikish kuchi 150-300 MPa, g‘ovakligi 10% dan oshmaydi). Shuni ta’kidlash kerakki, elektrokontaktli qoplash va pishirish paytida oksid plyonkalarining mavjudligi birikishning kuchini deyarli kamaytirmaydi, chunki plyonka yuqori elektr qarshiligiga ega, tok impulsi bilan jadal qizdiriladi, so‘ngra birikish zonasidan chiqariladi. Yu.V.Klimenko ma’lumotlariga ko‘ra, qatlam ikkinchi yuqori oksidlangan qatlamga quyilganda, birikish kuchi detalning tozalangan yuzasidagi birinchi qatlamning o‘xshash qoplamasidan past bo‘lmaydi.

Qoplamalarning yeyilishbardoshligi yuqori xromli cho‘yanni elektr yoyi bilan qoplash natijasida olingan qotishmalar darajasida bo‘lib, termik ishlov berilgan uglerodli va kam uglerodli po‘latlardan sezilarli darajada ustundir.

Elektr kontaktli qizdirish qatlam chuqurligi bo‘yicha o‘zgaruvchan fizik-mexanik xususiyatlarga ega qoplama olish imkonini beradi, bu esa kukun shixtani birgalikda qo‘llash orqali erishiladi. Tadqiqotlar yeyilishbardosh kukunlardan tayyorlangan qoplama chuqurligi bo‘yicha ikki, uch yoki undan ortiq ketma-ket zonalarni olish imkoniyatini aniqladi.

Kontaktli qizdirish kukun va yengil materiallardan qoplamalar ishlab chiqarishda ham qo‘llanilgan rulonli elektrodlardan foydalangan holda metall buyumlarga tok o‘tkazuvchi kukunli kompozitsiyalarni qo‘llashning ba’zi texnologik jihatlari ko‘rib chiqildi. O‘zgaruvchan elektr toki ferromagnit metall kukunlaridan foydalanishni qiyinlashtirishi ta’kidlandi. Ushbu kamchilikni


ISSN 3030-3907

to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr tokidan yoki kukunlarni Kyuri nuqtasida oldindan qizdirish bilan yo‘q qilish mumkin. Karbid kukunlari va ularning asosidagi aralashmaning elektr bilan ta’sir qilish, ferroxrom, ferromarganes va ferrotitanni kukun aralashmalarini ularni yeyilish detallari yuzalarida biriktirish uchun puxtalash komponentlari sifatida ishlatish imkoniyati ko‘rsatilgan.

Qoplamalarning yeyilish darajasi, issiqlik bilan ishlov beriladigan uglerod va past qotishma po‘latdan ancha yuqori bo‘lgan yuqori xromli quyma temirning elektr yoyi bilan olinadigan qotishmalar darajasida.

Keng texnologik imkoniyatlarga ega bo‘lgan elektrokontaktli pishirishni kukun materiallardan foydalangan xolda detallarning ta’mirlashdan keyingi ekspluatatsion davrini oshirish mumkin. Bu texnologik jarayonning usullari 1.1-rasmda keltirilgan. Jarayonning mohiyati harakatlanayotgan detal va elektrod orasiga metall kukuni joylashtiriladi va ular orqali tok o‘tkaziladi, hamda bosim ta’sir ettiriladi.

Natijada, qayta tiklanadigan detalning yuzasida qatlam hosil bo‘ladi, uning qalinligi kukun va rolikni ilashish burchagi bilan belgilanadi. Qayta tiklash qoplamalarining kerakli xususiyatlari kukunlarning tarkibiga bog‘liq. [10.14,8,5]



1.1-rasm. Kukun materiallarni elektrokontakt pishirinning sxemalari: a- tekis (gorizontal sxema); b-tashqi silindrik; v-tashqi silindirik yuzaga tekis elektrod bilan; g-tekis (vertikal); d-ichki silindrik yuzaga; ye-konus yuzaga; j- yon yuzaga; 1-elektrod; 2-kukun; 3-detal; 4-kukun qatlami; 5-ezuvchi rolik.

ISSN 3030-3907

Yuqori sifatli tiklanish o‘z-o‘zi flyuslanadigan PG-XN80SR2 kukuni, PG-C1 sormayt kukuni va PJ-3M temirining teng hajmli qismlarida mis va qo‘rg‘oshin qo‘shilgan tarkibi bilan ta’minlanadi (1,5...5,0 %) [1,13,15].

Val kabi detallarni tiklash uchun quyidagi kukunli kompozitsiyalardan foydalanish tavsiya etiladi: 20% FBX-6-2+80% PJ-5; 20% KBX+5% Al_2O_3 +75PJ-5; 30% PG - XN80SR2+70% PG-10N-04; 20% PK-10 K01-80% PG-10N-04. Ushbu kompozitsiyalardan foydalanish mexanik ishlov berish imkoniyati bilan qoplamalarning yuqori yeyilishga qarshiligini ta’minlaydi.

Qayta tiklanadigan sirt bilan qoplamaning birikish kuchi 150...30 Mpa teng. Qoplamalarning g‘ovakliligi va qattiqligi keng doirada o‘zgarib turadi va qoplamani tashkil etuvchilarining tarkibiga bog‘liq. Qoplamalarning g‘ovakliligi 12...25% va qattiqligi 25...63 HRC atrofida. Eng yuqori qattiqlik PG-C1 + (60...70 %) FX-80 dan olingan qoplamada erishilgan.

Kukunli qoplamali detalarning toliqishga chidamliligi yangi detallarning ushbu ko‘rsatkichlariga nisbatan 7...12% ga kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alexin O. S., Korolev D. V., Suvorov A. K., Suvorov K. A. Raschet adiabaticheskoy temperaturы goreniya entalpiynым metodom: Metodicheskie ukazaniya. SPb., SPbGTI (TU), 2001. — 18 s.
2. Bagryanskiy K.V., Dobrotina Z.A., Xrenov K.K. Teoriya svarochnых protsessov: Xarkov. Izd-vo Xarkovskogo universiteta. 1968. – 502 s. s. 191-196.
3. Bogomolova N.A. Prakticheskaya metallografiya. / N.A. Bogomolova // – M.: Vыsshaya shkola, 1987 – 240 s.
4. Burak P.I. Dvijщie silы sxvatыvaniya i obrazovaniya protsessa soedineniya poverxnostey pri elektrokontaktnoy privarke. Tekst // P.I. Burak // Mejdunarodnыy texniko-ekonomicheskiy jurnal. 2007 №:4(4) – S. 33-37.
5. Burak P.I. Intensifikatsiya elektrokontaktnoy privarki lent pri vosstanovlenii detaley. avtoref. doktora texn. nauk – 05.02.03 – 2012. -53s.
6. Burak P.I. Elektrokontaktnaya privarka lentы cherez promejutochnыy sloy poroshkovogo materiala. Tekst / R.A. Latыpov, P.I. Burak // Texnologiya metallov. 2005 – №:5 -s. 37-38.
7. Burak P.I. Texnologicheskie priemы naneseniya promejutochnogo sloya dlya elektrokontaktnoy privarki. Tekst / P.I. Burak // Mejdunarodnыy nauchnыy jurnal 2009, –№1 – s. 62-66.
8. Burak P.I. Soedinenie poverxnostey pri elektrokontaktnoy privarke. Tekst / P.I. Burak // Trudы GOSNITU 2008. – S.70-75.
9. Bulыchev V.Ye. Otsenka prochnosti soedineniya raznorodnых metallov pri elektrokontaktnoy privarke / V.Ye. Bulыchev R.A. Latыpov // Svarochnoe proizvodstvo – 2012. – №:6 – S. 17-21.

ISSN 3030-3907

10. Bulыchev V.V. Razrabotka elementov teorii m texnologicheskix putey obespecheniya stabilnosti formirovaniya zonы soedineniya pri elektrokontaktnoy privarke provoloki: avtoref. diss… d-ra texn. nauk: 05.02.10 / Vsevolod Valerievich Bulыchev. – M. 2012. – 32 s.
11. Bulыchev V.V. Razrabotka elementov teorii m texnologicheskix putey obespecheniya stabilnosti formirovaniya zonы soedineniya pri elektrokontaktnoy privarke provoloki: avtoref. diss… d-ra texn. nauk: 05.02.10 / Vsevoed Valerievich Bulыchev. – M. 2012. – 32 s.
12. [12] Abduvaliev, U., Jumaev, A., Nurullaev, R., Jakhonov, S., & Jurakulov, I. (2024). Investigation of the process of the influence of winding spindles with cotton fiber on the performance of a cotton picker. In E3S Web of Conferences (Vol. 548). EDP Sciences.
13. [13] Abduvaliev, U., Jumaev, A., & Nurullaev, R. (2024, August). Influence of the Sectional Shape of the Grabbing Element of a Screw Composite Spindle on Agricultural Performance and Stability of Operation of a Cotton-Picking Machine. In International Conference on Reliable Systems Engineering (ICoRSE)-2024 (Vol. 1129, p. 288). Springer Nature.
14. [14] Бобоев, Х., Р. Нуруллаев, and А. Сайдуллаев. "SELECTION OF ALLOYS, THEIR STRUCTURE AND PROPERTIES." Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок 1.5 (2025): 114-118.
15. [15] Абдувалиев, Убайдулла Абдуллаевич, and Рахимберди Туйғун Ўғли Нуруллаев. "SHPINDEL SIRTIDAGI TISHLARNING JOYLASHISHI ZICHLIGI VA BIR TEKISDALIGINI ANIQLASH." Механика и технология 2.11 (2023): 46-54.

ISSN 3030-3907

BURG‘ILASH SUYUQLIGINI YUTUVCHI SKVAJINALARDA MUSTAHKAMLASH UCHUN KENGAYUVCHI QUVURLARNI QO‘LLASHNING ILMIY ASOSLARI

Normayev Qobilbek Husanovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi dotsent v.b. (PhD)
Ravshanova Muslima Olimjonovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi assistenti
Ashirova Mehribon Rustam qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti 47A-25MMTX guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada burg‘ilash suyuqligini yutuvchi skvajinalarda yuzaga keladigan muammolar, ularning kelib chiqish omillari hamda texnologik yechimlari tahlil qilingan. Asosiy e’tibor kengayuvchi mustahkamlovchi quvurlar yordamida skvajina devorlarini mustahkamlash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tajriba-sinov natijalari asosida turli diametrli skvajinalar uchun optimal qalinlik qiymatlari aniqlangan va ular o‘rtasidagi matematik bog‘liqlik ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: suyuqlik yo‘qotilishi, skvajina, burg‘ilash suyuqligi, to‘ldirgichlar, mustahkamlovchi quvurlar, bartaraf etish, oldini olish, bo‘shliq, yoriqlar, katastrofik holatlar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены проблемы, возникающие в скважинах, поглощающих буровой раствор, причины их возникновения, а также технологические решения. Основное внимание уделено возможностям укрепления стенок скважин с помощью расширяющихся обсадных труб. На основе опытно-экспериментальных исследований определены оптимальные значения толщины для скважин различного диаметра и разработаны математические зависимости.

Ключевые слова: потери раствора, скважина, буровой раствор, наполнители, обсадные трубы, устранение, предотвращение, пустоты, трещины, катастрофические ситуации.

Abstract: This article analyzes the problems arising in drilling fluid–absorbing wells, the causes of their occurrence, and possible technological solutions. The main focus is on the potential of reinforcing wellbore walls using expandable casing pipes. Based on experimental studies, the optimal wall thickness values for wells of different diameters have been determined, and a mathematical relationship has been developed.

ISSN 3030-3907

Keywords: fluid loss, wellbore, drilling fluid, fillers, casing pipes, elimination, prevention, voids, fractures, catastrophic conditions.

Kirish


Bugungi kunda mamlakatimizda ko‘pgina foydali qazilma konlarining qulay geologik sharoitlarda va yuqori gorizontlarda joylashgan zaxiralarini tugab borayotgani sababli, yangi foydali qazilma zaxiralarini qidirishni jadallashtirishni taqozo qilmoqda, Biroq, aksariyat foydali qazilma zaxiralari katta chuqurliklarda va noqulay geologik sharoitlarda joylashgan bo‘lib, ularni qidirish va nazorat qilish ishlari anchagina murakkab hisoblanadi. Noqulay geologik sharoitlarda chuqur skvajinalarni burg‘ilash bir qancha geologik va texnologik asoratlarni yuzaga kelishi bilan qiyinchiliklar tug‘diradi.

Skvajinalarni burg‘ilash davomida yuzaga keladigan har qanday asoratlar skvajinalarni o‘tish muddatini uzaytiradi, skvajina tannarxini oshiradi va burg‘ilash ishlarining energiya va resurs tejamkorligini kamaytiradi, qolaversa foydali qazilma konlarini qidirish va nazorat qilish ishlarini sifatsizlantiradi bu esa o‘z navbatida skvajinalarni burg‘ilash samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Skvajinalarni burg‘ilashda samaradorlikni pasaytiruvchi keng tarqalgan asoratlarga asosan texnik va texnologik xarakterga ega bo‘lgan hamda geologik xarakterga ega bo‘lgan asoratlar kiradi. Hozirda texnologik xarakterga ega bo‘lgan eng ko‘p tarqalgan asoratlar bo‘lar burg‘ilash kolonnasi va tog‘ jinsini parchalovchi asbob ustida salniklarni hosil bo‘lishi, skvajina stvolida jelob hosil bo‘lishi va skvajina trayektoriyasining o‘zgarishidir, ushbu asoratlarning yuzaga kelish burg‘ilash ishlarini anchagina qiyinlashtirib qo‘yadi va ushbu asoratlarni bartaraf etish vaqt, energiya va boshqa resurslarni talab etadi. Konchilik tarmoqlari qazib olish sohasida burg‘ilash texnologiyalarining samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, quduqlarni burg‘ilash jarayonida eng katta muammolardan biri bu – burg‘ilash suyuqligining yutilishidir. Ushbu hodisa kon-geologik sharoitlar murakkab bo‘lganda tez-tez kuzatiladi. Suyuqlikning yoriqlarga, kavernalar va g‘ovak jinslarga oqib ketishi jarayonni sekinlashtiradi, ortiqcha xarajatlarga sabab bo‘ladi hamda texnik xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, kam uchrasada, burg‘ilash suyuqliklarini yutilishi burg‘ilash brigadasining personalini tajribasizligi va texnik va texnologik asboblarni noto‘g‘ri tanlash, burg‘ilash suyuqligini tayyorlashdagi xatoliklar natijasida yuvuvchi suyuqlikning yutilishi uchrab turadi. Bunday holatlarda, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish orqali yuvuvchi suyuqlikni yutilishini oldini olishga erishiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim hollarda umumiy tannarxning 20–25 foizigacha bo‘lgan xarajatlar aynan burg‘ilash suyuqligi yutilishi bilan bog‘liq. Shu sababli, mazkur muammo nafaqat ilmiy, balki ishlab chiqarish amaliyotida ham dolzarb hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Burg‘ilash suyuqligi yutilishining sabablari suyuqlik yutilishiga olib keluvchi omillarga bog‘liq ular ikki toifaga bo‘linadi geologik va texnologik. Geologik omillar, jinslarning yuqori g‘ovakligi, tabiiy yoriqlar va bo‘shliqlar, plast bosimining pastligi, karbonat va qumtosh qatlamlarining noturg‘unligi. Texnologik omillar, burg‘ilash eritmasining noto‘g‘ri tanlanishi, zichlikning ortib ketishi, gidravlik rejimning buzilishi, burg‘ilash tezligi va jihozlarning texnik ko‘rsatkichlari. Yo‘qotilish darajalari burg‘ilash suyuqligi yutilishi intensivligiga qarab quyidagi toifalarga ajratiladi, kichik – 5 m³/soat gacha O‘rta – 10–15 m³/soat Kuchli – 40–60 m³/soat Katastrofik – 60 m³/soatdan ortiq (to‘liq yutilish holati)



1-rasm. Burg‘ilash suyuqligi yutilish darajalari

Devorlari mustahkam bo‘lmagan va qulab tushish ehtimoli yuqori bo‘lgan tog‘ jinslarida skvajinalarni burg‘ilaganda yuvuvchi suyuqlikning yutilishi yuzaga kelgan, tezkorlik bilan yuvuvchi suyuqlikni yutilishini bartaraf etilmasa, skvajina devorlarining qulashi yuzaga keladi va o‘tilgan skvajinani qayta burg‘ilash yoki ushbu skvajinani tashlab boshqa skvajinani yangidan o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Skvajinalarni burg‘ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarning katastrofik yutilishi kuzatilganda, bu yutilish katta hajmli g‘ovakliklar va darzdorliklar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday holatlarda skvajinada suyuqlikni yutuvchi hudud alohida mustahkamlovchi quvur bilan mahkamlanadi. Biroq, bunday holda o‘rnatilgan mustahkamlovchi quvurning devorlarining qalinligi miqdorida skvajinaning diametri qisqaradi, bu esa o‘z navbatida bir qator texnologik qiyinchiliklarga olib keladi.

Muammoni bartaraf etishda burg‘ilash suyuqligi yo‘qotilishini kamaytirish uchun turli usullar mavjud bo‘lib, eritma zichligini kamaytirish (aeratsiya orqali). profilaktik usullar (kichik va o‘rta yo‘qotilishlarda samarali) maxsus texnologiyalar (katastrofik yutilishlarda qo‘llaniladi) va bir vaqtning o‘zida jihozlab burg‘ilash usullari.

ISSN 3030-3907

Bir vaqtning o‘zida jihozlab burg‘ilash usuli qo‘llanilganda quvurlar skvajinaga tushirilishi bilan birga devorlarni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Kengayuvchi quvurlarni qo‘llashning ilmiy asoslari katta hajmdagi yutilish kuzatilganda skvajinaning alohida qismlarini kengayuvchi quvurlar yordamida mustahkamlash taklif etiladi. Ushbu quvurlar maxsus profilli listlardan tayyorlanadi va skvajina devoriga kengayib joylashadi. Quyida 2-ramda skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini alohida qismlari keltirilgan.



2-rasm. Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini alohida qismlari.

Burg‘ilash snaryadi ish holatiga tayyor qilib yig‘ilgandan so‘ng, burg‘ilash uskunasiga o‘rnatilib skvajinaga tushurildi, skvajinaga tushurish jarayonlarining foto lavhasi 3-rasmda keltirilgan. Burg‘ilash snaryadining jins parchalovchi asbobi skvajina zaboyiga yetgandan so‘ng, 0,7 metrga skvajina chuqurlashtirildi, so‘ng esa burg‘ilash kolonnasi to‘xtatilib, kolonna ortga 3-4 oborot aylantirildi va yuqoriga ko‘tarib olindi. 3-rasmda burg‘ilash kolonnasini ko‘tarib olish jarayoni keltirilgan, undan ko‘rinib turibdiki, kengayuvchi mustahkamlash quvuri skvajina tubida devorlarga mustahkamlanib qolgan. Tadqiqotlarda quvurning devor qalinligi uning ishonchliligi va siqilishga qarshi mustahkamligi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli turli diametrli skvajinalar uchun quvurning optimal qalinligi tajribalar orqali aniqlangan.

ISSN 3030-3907



3-rasm Kengayuvchi quvur tajriba sinovlarida joylashtirish jarayoni

Dastlabki tajribalar ijobiy natija bergandan so‘ng, taklif etilayotgan skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini burg‘ilash suyuqligini yutilishi sodir bo‘lgan geologik qidiruv skvajinasida sinab ko‘rildi. Bunda, chuqurligi 160 metr, diametri ∅ 112 mm, tog‘ jinsining qattiqlik koeffitsiyenti f=8 ga teng bo‘lgan skvajinaning 107- metr chuqurligida uchragan katta hajmli darzliklar uzunligi 2 metrga teng bo‘lgan kengayuvchi obsadka quvuri bilan mustahkamlandi, Taklif etilayotgan kengayish qobiliyatiga ega bo‘lgan kengaytirgich skvajinaning 107-108-metr chuqurligida, skvajina diametrini ∅ 112 mm dan ∅ 122 mm gacha kengaytirish imkonini berdi va shundan so‘ng boshlang‘ich diametri ∅ 104 mm bo‘lgan kengayish xususiyatiga ega obsadka quvuri ushbu uchastkada diametri ∅ 122 mm gacha kengaytirilib skvajina devori mustahkamlandi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan kengayish va siqilish qobiliyatiga ega bo‘lgan burg‘ilash kengaytirgichining yangi konstruksiyasi hamda skvajinaning chuqurligi bo‘yicha alohida uchastkalarini darzlik va g‘ovakliklarini yopish imkonini beruvchi, kengayuvchi obsadka quvurli burg‘ilash snaryadini qo‘llash skvajinada yuvuvchi suyuqlikning yutilishini bartaraf etish imkonini berishi aniqlandi.

Skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopish imkonini beruvchi burg‘ilash snaryadini konstruksiyasini qo‘llaganda kengayuvchi quvurni suyuqlikni yutuvchi hududga joylashtirish va joylashtirilgandan so‘ng uning ishonchli qotirilishi juda mushkul jarayon hisoblanadi. Bunda, kengayuvchi quvurning qisilishga ko‘rsatiladigan qarshilik kuchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Kengayuvchi quvur osenkovkalangan profil listdan tayyorlangani sababli uning qisilishga ko‘rsatadigan qarshilik kuchi listning qalinligiga bog‘liq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Diametri kichik bo‘lgan skvajinalarda yuvuvchi suyuqlikning yutilishi kuzatilganda qalinligi katta bo‘lgan profil listidan kengayuvchi quvur sifatida foydalanish juda murakkab hisoblanadi. Aslida esa qalinligi yuqori bo‘lgan listdan kengayuvchi quvur sifatida foydalanish juda afzal hisoblanadi, chunki uning qisilishga ko‘rsatadigan qarshilik kuchi yuqori bo‘lganligi sababli, skvajina devoriga mustahkam o‘rnashadi va ishonchliligi yuqori bo‘ladi. Biroq, bunday quvurni, skvajina tubiga tushirish va joylashtirish juda qiyin, bunday quvurni tushirish, burg‘ilash va kengaytirish jarayonida ochilib ketishi xavfi yuqori bo‘ladi, shuning uchun qalinligi 0,3-0,45 mm oralig‘idagi profil listlarini kengayuvchi quvur sifatida ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Diametri katta bo‘lgan skvajinalarda esa, yuqoridagi mulohazaning aksi kuzatiladi, ya’ni qalinligi kichik bo‘lgan profil listdan kengayuvchi quvur yasalganda, uning diametri ortganligi sababli siqilishga qarshi kuchi quvurni ochish uchun yetarlicha bo‘lmaydi, bundan tashqari skvajina devoriga mustahkam o‘rnashmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yuvuvchi suyuqlikning yutilishi kuzatiladigan skvajinalarning turli diametrlari uchun profil listdan yasaladigan kengayuvchi quvurning qalinligini optimal kattaligini tajriba sinovlari orqali aniqlab olindi. Bunda, diametri ∅76 mm, ∅112 mm, ∅151 mm va ∅279 mm bo‘lgan skvajinalar uchun kengayuvchi quvurni qalinligini 0,3 mm dan 0,8 mm gacha kattaligida yasab olinib skvajina devori mustahkamlanib ko‘rildi. Natijada, diametri ∅76 mm bo‘lgan skvajina devorini mustahkamlash uchun kengayuvchi quvurning devorining optimal qalinligi 0,3 mm, diametri ∅112 mm bo‘lgan skvajina uchun profil quvurning devorini qalinligi 0,4 mm, diametri ∅151 mm skvajina uchun 0,55 mm va diametri ∅279 mm bo‘lgan skvajina devorini mustahkamlash uchun kengayuvchi profilli quvurning devorining eng optimal qalinligi 0,75 mm ekanligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgandan kelib chiqqan holda yuvuvchi suyuqlikni yutilishi yuzaga kelganda skvajina diametrining turli kattaliklari uchun kengayuvchi quvurning devorining optimal qalinligini quyidagiga 1- jadvalga asosan tanlanadi:

1-jadval

D_{skv}, mm	76	89	112	121	132	151	179	219	251	279	320
$б_{quv}$, mm	0,3	0,35	0,4	0,45	0,5	0,55	0,6	0,65	0,7	0,75	0,8

Bajarilgan tajriba-sinovlari natijalarini va quyda 4-rasmdagi grafikda keltirilgan qiymatlarni analitik, korrelyatsion va statistik tahlil qilinib skvajinalarni burg‘ilash jarayonida yuvuvchi suyuqliklarni yutilishi kuzatilganda,

ISSN 3030-3907


skvajinalarning turli diametrlari uchun stvol devorlarini samarali va ishonchli mustahkamlash imkonini beruvchi skvajinaning alohida qismlarini mustahkamlovchi quvur bilan yopuvchi burg‘ilash snaryadining kengayuvchi quvurini devorini optimal qalinligini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi ifoda hosil qilindi:

$$Б_{quv} = k \times D_{skv} + b$$

Bu yerda , $Б_{quv}$- kengayuvchi quvur devorining qalinligi, mm; D_{skv}- skvajina diametri, mm; b- to‘g‘irlovchi koeffitsiyent (D_{skv} 76÷151 mm gacha bo‘lganda b=0,1997; D_{skv} 179÷320 mm gacha bo‘lganda b=0,21).

Olingan natijalarda $f(x)$ o‘zgaruvchan qiymatni kengayuvchi quvur devorining qalinligi $Б_{quv}$, x argumentni D_{skv} skvajina diametri va k va b haqiqiy sonlarni 0,002 va 0,1997 ga teng qilib funksiya tuzildi.

$$f(x) = kx + b$$



4-rasm Diametrni mustaxkamlovchi quvur qalinligiga bog‘liqlik grafigi

Xulosa: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, burg‘ilash suyuqligining yutilishi jarayoni qazish samaradorligini keskin kamaytiradi va katta iqtisodiy zarar keltiradi. Muammoni hal etishning eng istiqbolli usullaridan biri bu – kengayuvchi quvurlar yordamida skvajina devorlarini mustahkamlashdir.O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari turli diametrli quduqlar uchun optimal qalinliklarni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, ishlab chiqilgan matematik ifoda kelgusida amaliyotda quvurlarni loyihalash va tanlashda qo‘llanishi mumkin. Mazkur yondashuv nafaqat suyuqlik yutilishini kamaytiradi, balki burg‘ilash jarayonining ishonchliligini ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normayev Q.H. Skvajinalarni burg‘ilashda texnologik avariyalarni va geologik asoratlarni bartaraf etuvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish // PhD. dissestatsiya

ISSN 3030-3907

ishi // UO‘K: 622.248 // Navoiy: «O‘zbekiston konchilik xabarnomasi» jurnali nashriyoti, 2024 – 113 b.
2. Djurayev R.U., Mirzayev A.U. va boshq. Chuqur skvajinalarni burg‘ilash qazish uskunalari va texnologiyasi // Darslik. –Toshkent: «Lesson Press» nashriyoti, 2023, – 480 b.
3. Власюк В.И., Калинин А.Г., Анненков А.А. Бурение и опробование разведочных скважин. Учебное пособие для вузов.– М.: Изд-во ЦентрлитНефтеГаз, 2008. – 860 с.
4. Соловьев Н.В., Кривошеев В.В., Башкатов Д. Н. и др. Бурение разведочных скважин. – М.: Высшая школа, 2007. – 904 с.

ISSN 3030-3907

TEBINBULAK KONINING MINERALLASHUVI VA UNING TEMIR XOMASHYO BAZASIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI

Urunov B.N.
Geologiya fanlari universiteti
Shadiyev M.I.,
Geologiya fanlari universiteti
Yusupov U.X.
“Mineral resurslar instituti” DM
Ubaydullaeva A.A.
Geologiya fanlari universiteti
A’zamov I.A.
Geologiya fanlari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida joylashgan Tebinbulak konining geologik-strukturaviy xususiyatlari, magmatik jinslarning tarkibi va kimyoviy tahlili, shuningdek, konning minerallashuv zonalari va ularning iqtisodiy ahamiyati o‘rganilgan. Tebinbulak konining asosiy magmatik jinslari peridotit, piroksenit, gabbro va sienit-diorit bo‘lib, ular o‘zaro bog‘langan vulkanogen va terrigen cho‘kindi qatlamlarini yorib o‘tuvchi intruziv kompleksni tashkil qiladi. Minerallashuv asosan gabbro va sienit kontakt zonalarida rivojlangan bo‘lib, skarn jarayonlari temir xomashyosi resurslarini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Konning ellips shakldagi tuzilishi va intruziv jinslarning geokimyoviy tarkibi respublika temir sanoatining ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Tebinbulak koni, geologik tuzilma, magmatik jinslar, peridotit, piroksenit, gabbro, sienit-diorit, minerallashuv, skarn zonalari, temir xomashyosi.

Abstract. This article examines the geological and structural features of the Tebinbulak deposit, located in the territory of Uzbekistan, the composition and chemical analysis of igneous rocks, as well as the mineralization zones of the deposit and their economic significance. The main igneous rocks of the Tebinbulak deposit are peridotite, pyroxenite, gabbro, and syenite-diorite, which form an intrusive complex, penetrating interconnected volcanogenic and terrigenous sedimentary strata. Mineralization is mainly developed in the contact zones of gabbro and syenite, and skarn processes play an important role in the enrichment of iron raw material resources. The elliptical structure of the deposit and the geochemical composition of the intrusive rocks are strategically important for fulfilling the needs of the republic's iron industry.

Keywords: Tebinbulak deposit, geological structure, igneous rocks, peridotite, pyroxenite, gabbro, syenite-diorite, mineralization, skarn zones, iron raw material.

Аннотация. В статье изучены геолого-структурные особенности месторождения Тебинбулак, расположенного на территории Узбекистана, состав и химический анализ магматических пород, а также зоны минерализации месторождения и их экономическое значение. Основными магматическими породами Тебинбулакского месторождения являются перидотит, пироксенит, габбро и сиенит-диорит, которые образуют интрузивный комплекс, прорывающий взаимосвязанные вулканогенные и терригенные осадочные толщи. Минерализация развита преимущественно в контактных зонах габбро и сиенита, причем скарновые процессы играют важную роль в обогащении ресурсов железорудного сырья. Подчеркивается, что эллипсовидная структура месторождения и геохимический состав интрузивных пород имеют стратегическое значение для удовлетворения потребностей железорудной промышленности республики.

Ключевые слова: Тебинбулакское месторождение, геологическое строение, магматические породы, перидотит, пироксенит, габбро, сиенит-диорит, минерализация, скарновые зоны, железное сырье.

Kirish

Vatanimiz hududida qadimdan tog‘ kon sanoati rivojlanganligi to‘g‘risida tog‘li va tog‘oldi hududlardan topilgan qadimgi ma’dan eritish inshootlari dalolat beradi. Ayniqsa, Chotqol Qurama (Ohangaron vohasi), Markaziy Qizilqum, Nurota tog‘lari, Sulton Uvays tog‘i kabi tog‘li o‘lkalarda hozirgi kunda 10 mingdan ortiq qadimgi, X-XII asrlarga mansub ma’dan eritish inshootlari topilgan. Bu inshootlar turli ma’danlarni topish va qazib olish, eritish maskanlariga yetkazish, metall olish texnologiyasi naqadar qadimda rivojlanganligiga ishora va inkor qilinmaydigan dalilardir.

Insoniyatning temirga bo‘lgan ehtiyoji barchaga ayon. O‘zbekiston sanoatining tez suratlar bilan rivojlanishi metallga bo‘lgan talabni birmuncha oshirdi. Masalan, O‘zbekistonning qora metallarga bo‘lgan ehtiyoji 1,8 mln. tonnani tashkil etadi. Shundan 600 ming tonna qora metall chiqindilari va metallomni qayta ishlash hisobiga, qolgan 1,2 mln. tonnani mamlakatga import qilinadi.

O‘zbekiston hududida temirning turli genezisga ega bo‘lgan 200 ga yaqin kon va madan namoyonlari mavjud. Ulardan sanoat ahamiyatiga ega bo‘lganlari titan-magnetitli, magnetit-skarnli va magistit-gematitli turlaridir. Bu turdagi konlarda-Shimoliy Nurata, Boysun tog‘larida,Chotqol-Qurama tog‘li xududida qadimda temir qazib olingani arxeologik tadqiqotlardan malum.

Chotqol-Qurama xududida Ixnach, Barkrak, Mingbuloq va Surenota madan namoyonlari o‘rganilgan. Bulardan Surenota madanli maydoni eng yirik obekt

ISSN 3030-3907

hisoblanadi va mufassal o‘rganilgan. Uning bashoratlangan resursi 30-40 mln.tonna deb aniqlangan.

Markaziy Qizilqumda Sangruntov tog‘larida aeromagnit usul yordamida yirik anamaliya aniqlangan bo‘lib, lekin uning geologik sanoat turi gematit-magnetli bo‘lganligi sababli madan temirga boy bo‘lmaganligi uchun (temirning o‘rtacha miqdori 13%cha). sanoatda o‘zlashtirishi ahamiyat kasb etmaydi. Bashoratlangan resursi 118 mln. tonnani tashkil etadi.

1968 yilda Sultonuvays tog‘larida Tebinbuloq temir koni aniqlanadi va uning bashoratlangan resursi 450 mln. tonna deb baholandi. Lekin kondagi temirli madan sifati yuqori emasligi sababli qazib olish ishlari amalga oshirilmagan.

Tebinbulak koni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumani hududida, Nukus shahridan 75 km janubiy-sharqda joylashgan. Kondan 5-7 km masofada qurilayotgan Nukus-Karatau-To‘rtko‘l temir yo‘li tarmog‘i o‘tadi.

Tebinbulak koni 1937-yildan beri ma’lum bo‘lib, Ya.S.Veskivskiy tomonidan birinchi bo‘lib o‘rganilgan. Keyinchalik G.Yu.Alferov, D.A.Rubanov, A.P.Agafonov, A.A.Kulesh, K.A.Keshishyanlar tomonidan geologik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Faqat 1966-1970-yillarga kelib V.V.Baranov va V.M.Kormskoylar tomonidan geologik maxsus tematik ishlar bajarilganidan keyingina konning sanoat ahamiyatiga ega ekanligi tan olindi va Kachkanar geologik-sanoat to‘riga kiritildi (Ural).

Tebinbulak konining geologiyasi va uning tarkibi hamda strukturasidagi murakkablik mamlakat temir xomashyosi bazasining boyitilishida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu konning asosiy geologik xususiyatlari, intruziv jinslarning tarkibi, minerallashuv zonalari va ularning kimyoviy xususiyatlari konning iqtisodiy potentsialini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Tebinbulak konida joylashgan peridotit–piroksenit–gabbro kompleksi tog‘ jinslari va ular bilan bog‘liq terrigen va vulkanogen cho‘kindi qatlamlari hamda chuqur metamorfizimga uchragan jinslar konning geodinamik tarixini yoritishda katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Tebinbulak konining geologik tuzilishi, magmatik jinslarining kimyoviy va mineralogik tarkibi, minerallashuv jarayonlari hamda uning iqtisodiy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

Geologik tuzilishi va magmatik jinslar tarkibi


Ma’danlashuv Tebinbulak intruzivida (proksenit-gabbro C_1) kompleksida joylashgan bo‘lib, u O‘rasoy chuqur darzligida quyi devon davriga mansub kremniy-karbonat-terrigen (Beshmazor svitasi) va vulkanogen-karbonat-terrigen (Jamansoy svitasi) qatlamlari orasidagi sinklinal tuzilmada joylashgan (1-rasm).

ISSN 3030-3907

Intuziv shimoldan janubga cho‘zilgan etmolit (ellips shaklida) ko‘rinishida bo‘lib, 4,5x1,8 km o‘lchamda, asosan piroksenitlar, gornblenditlar va kam miqdordagi gabbro hamda peridotitlardan tashkil topgan.

Ma’danlar asosan xol xol shaklda (97% ni tashkil etadi), zich xol xollashgan va yaxlit tuzilishga ega. Asosiy ma’dan minerali-titanomagnetit bo‘lib, magnetitdan iborat va unda ingichka shaklda ilmenit qotishmalari mavjud. Shuningdek, konda gematit ham aniqlangan. 1973 yilda V.V.Baranov, K.M.Kromskoylar tomonidan ma’danli va ma’dansiz piroksenitlarda pirit-xalkopirit minerallashuvi bilan birga, tabiiy holda oltin va platina, shuningdek, oltin telluridlari, platinaning sulfid va arsenidlari mavjudligi aniqlangan.

1970-1980 yillarda I.M.Jigarlovskiy va V.P.Strigin tomonidan olib borilgan geologik-geofizik qidiruv ishlari davomida gravimetriya va magnitometriya tadqiqotlari o‘tkazilgan. Natijada, titanomagnetit minerallashuvi zonasida yuqori magnit anomaliyalari aniqlangan.



1-rasm. Tebinbuloq konining sxematik geologik xaritasi

1-to‘rtlamchi davr yotqizig‘i; 2-beshmozor svitasi (D1); qumtosh, alevrolit, marmar; 3-jamonsoy svitasi (D1); effuziv, slanets, marmar; 4-peridotit; 5-piroksenit; 6-gornblendit; 7-gabbro; 8-gabbro-sienit; 9-albitli, sienitli tomir; 10-karbonatli-kvars tomirlari; 11-hududning tomirsimon minerallashuvi; 12-reja(a)vaqirqim(b) bo‘yicha loyihadagi burg‘i qudug‘i.

ISSN 3030-3907

Jami 37 ta anomaliya qayd etilgan bo‘lib, ularning o‘lchami 500–600 metrdan 2100–2250 metrgacha yetadi. Umuman olganda, kon bo‘yicha (1–37 anomaliyalar) bashoratlangan ma’dan zaxiralari 4,3 milliard tonna deb baholangan.

Eng istiqbolli deb topilgan anomaliyalar - №1 va №2 bo‘lib, ular G‘arbiy va Sharqiy uchastkalarga to‘g‘ri keladi.

G‘arbiy uchastka yuzasida 2400 metrgacha kuzatilgan, qatlam qalinligi 100–400 metr (o‘rtacha 271 m). 500 metr chuqurlikkacha burg‘ilash ishlari olib borilgan va ikki tajriba namunasi bo‘yicha texnologik sinovlar o‘tkazilgan.

Bashoratlangan resurslarning P1 toifasi bo‘yicha hisoblangan resurslari 300 metr chuqurlikkacha 1 milliard tonna ruda deb baholangan.

Tebinbulak koni asosan peridotit–piroksenit–gabbro kompleksidan tashkil topgan bo‘lib, bu tog‘ jinslari o‘zaro bog‘langan vulkanogen va terrigen cho‘kindi qatlamlarini yorib o‘tuvchi turli shakllanishlarga ega. Ushbu jinslar orasida σ, νC₁t va chuqur metamorfizmga uchragan ikki xil jinslar mavjud. Jamansay ($D_{1–2}$dz) va Beshmazar (D_2(?)bm) jinslari esa Jamansay kompleksining yosh sienit–diorit jinslari tomonidan buzilgan (ξ P(?)d). Quyida Tebinbulak konining asosiy magmatik jinslari va ularning kimyoviy tarkibi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Tebinbulak konining asosiy magmatik jinslari va ularning kimyoviy tarkibi

Magmatik jins	SiO_2 (%)	MgO (%)	FeO/Fe_2O_3 (%)	Al_2O_3 (%)	CaO (%)	TiO_2 (%)	V (%)	S (%)	Izoh
Peridotit	40–45	35–45	8–12	2–5	2–4	0,5–1	0,01	0,01	O‘ta asosiy jins; olivin va piroksen asosiy minerallari
Piroksenit	45–50	20–30	10–15	3–6	3–5	0,8–1,2	0,02	0,02	Asosiy tarkib piroksen; ba’zan olivin ham mavjud
Gabro	45–52	5–15	8–12	14–18	5–8	1–2	0,03	0,015	Plagioklaz va piroksen asosiy minerallari, kremniy yuqori

ISSN 3030-3907

Gabbro-pegmatit	46–54	4–12	7–11	15–19	5–9	1–2,5	0,03	0,02	Katta kristalli; cho‘zilgan zonalarda rivojlangan
Sienit-diorit (kontakt)	55–60	2–8	5–10	17–20	4–7	1,5–3	0,04	0,01	Kontakt zonalarda temir minerallashuviga bog‘liq


Intruziv jinslar ellips shaklda joylashgan bo‘lib, ular asosan meridional yo‘nalishda cho‘zilgan. Magmatik jinslar 1000 metrgacha chuqurlikda aniqlangan. Intruziv jinslarning tarkibida o‘rta asosli jinslar (peridotit, piroksenit, tebinit, gornblendt) taxminan 90% ni tashkil qiladi. G‘arbiy endokontakt zonada peridotitlar va olivinli piroksenitlar katta massivlarni hosil qiladi, kichikroq chiqishlar esa kon maydonining barcha hududida tarqalgan [1]. Peridotit jinslari piroksenitlar, tebinitlar va gornblendtlar bilan o‘zaro aralashib ketadi.

Asosiy tarkibdagi jinslar taxminan 8% ni tashkil qiluvchi shoh aldamchisi gabbro bo‘lib, u intruzivning markaziy va janubi-g‘arbiy qismlarida hamda sharqiy kontakt zonalarida keng rivojlangan [2]. Gabbro-pegmatitlar esa gabbro va gornblendtlar orasida noaniq shakllarda, cho‘zilgan zonalarda joylashgan.

Minerallashuv jarayonlari va kontakt zonalari

Jamansay kompleksidagi temir ma’danlashuvi gabbro va sienit kontaktlariga bog‘liq bo‘lib, sienit-dioritlar va gabbro-dioritlar bilan janubiy va sharqiy kontakt zonalarda granat-piroksen va epidot-granat skarnlari keng tarqalgan. Bu skarn zonalar ba’zan sezilarli qalinlikka ega bo‘lib, metall xomashyosi uchun muhim manba hisoblanadi [3, 4].

Massivning g‘arbiy va sharqiy endokontakt zonalarida biotitli (vermikulitli) piroksenitlar maydonlari keng tarqalgan. Aynan piroksenit jinslari ma’danlashuvning asosiy massasini tashkil qiladi. Bu minerallashuv turlarining mavjudligi konning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi (2-rasm).



ISSN 3030-3907

PIROKSENIT	TEBINIT	GORNBLENDIT VA MAGNETIT BIRLAShMASI
Shlif Tebz-9; uvel 63x; nik. X	Shlif Tebz-9; uvel 120x; nik. II.	Shlif Tebz-12b; uvel 120x; nik. II

2-rasm Tebinbulak koni bo‘yicha tayyorlangan shliflar.

(V.D.Soy ma’lumotlari asosida (2012-2015y.y.))

Iqtisodiy ahamiyati

Tebinbulak koni geologik tuzilishi, tarkibi va minerallashuv xususiyatlari jihatidan O‘zbekistonning temir xomashyosi ehtiyojlarini qondirishda muhim manba hisoblanadi. Kon tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi o‘rta asosli jinslar (peridotit, piroksenit, tebinit, gornblendt) va gabbro jinslari metallurgiya sanoatining rentabelligini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega.

Minerallashuv jarayonlari, ayniqsa skarn va kontakt zonalaridagi temir boyliklari, kelajakda konning yanada chuqur o‘rganilishi va samarali foydalanilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, konning ellips shaklda va meridional yo‘nalishda cho‘zilgan geologik tuzilishi konni o‘zlashtirish va qazib olish jarayonlarini samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Xulosa

Tebinbulak konining geologik strukturasida peridotit–piroksenit–gabbro kompleksi asosiy o‘rinni egallaydi. Intruziv jinslar taxminan 90% o‘ta asosiy jinslardan iborat bo‘lib, gabbro va gabbro-pegmatitlar esa taxminan 8% ni tashkil qiladi. Konning minerallashuvi asosan gabbro va sienit kontakt zonalarida rivojlangan bo‘lib, skarn jarayonlari orqali temir boyliklari shakllangan. Ushbu kon respublika temir xomashyosi ehtiyojini qondirishda va metallurgiya sanoatining rivojlanishida strategik ahamiyatga ega.

Shunday qilib, olib borilgan geologiya-qidiruv tadqiqotlari natijasida Tebinbulak koni potensial ravishda sanoat ahamiyatiga ega ob’ekt ekanligi aniqlandi va u yerda geologiya-razvedka ishlarini izchil davom ettirilishi va konni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘zlashtirish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, chiqindisiz texnologiya asosida o‘tkazilgan tajribaviy ishlar orqali boyitish qurilmasi chiqindilaridan qurilish sanoatida ishlatiladigan mahsulotlar – bezaklash qoplama plita, g‘isht, cherepitsa, drenaj trubalari, qum-graviy to‘ldirgichlari va boshqa materiallar olinishi o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Висьневский Я.С. Петрография основных и ультраосновных пород Султануиздага. Ташкент, Изд-во Уз.Фан АН СССР, 1940.

ISSN 3030-3907

2. Исламов Б.Ф., Рустамов А.И., Цой В.Д., Сайитов С.С. Перспективы скандиеносности титаномагнетитового месторождения Тебинбулак // Вестник геонаук. - 2021. - № 3. - С. 21-26.
3. Каталог интрузивных массивов Узбекистана. (отв. ред. И.Х. Хамрабаев). - Часть II. Ташкент, ФАН, 1975. С.157-162.
4. Наследов Б.Н. Металлогения Западного Тянь-Шаня и Узбекистана. - М.: Госгеолтехиздат, 1968.
5. Смирнов В.И., Гинзбург А.И., Григорьев В.М., Яковлев Г.Ф. Курс рудных месторождений (учебник). М., Недра, 1986.
6. Рудные месторождения Узбекистана-Ташкент: ГИДРОИНГЕО, 2001-611с.

ISSN 3030-3907

ANALYSIS OF METHODS FOR IMPROVING THE OPERATION MODES OF A SINGLE-PHASE INDUCTION MOTOR

S.S.A'zamov
Andijan State Technical Institute PhD, Associate Professor
E-mail: azamovsaidikrom1992@gmail.com
Jorakulov Bobur
Student of Andijan State Technical Institute
E-mail: joraqulovbobur402@gmail.com

Abstract: The operating modes of single-phase asynchronous motors supplied from a single-phase source in world production and enterprises, methods for improving their efficiency, reducing energy consumption and improving reliability are analyzed. The study studies the factors of power factor, heat losses and reactive power compensation at the moment of motor start-up. As a result, energy-saving control systems, methods of using phase-shifting elements and principle schemes for generating a rotating magnetic field using phase-shifting devices are presented. The structure of single-phase windings and stator core slots in the stator of a single-phase asynchronous motor and the analysis of magnetic moment graphs are highlighted.

Keywords: asynchronous motor stator windings, electromagnetic torque, reactive power consumption, pure rotating magnetic field, phase-shifting element, Mechanical characteristics.

Annotatsiya: Jahonda ishlab chiqarish va korxonalarida bir fazali manbadan ta'minlangan bir fazali asinxron motorlarning ish rejimlari, ularning samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va ishonchliligini yaxshilash bo'yicha takomillashtirish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda motorning ishga tushish momentida, quvvat koeffitsienti, issiqlik yo'qotishlari va reaktiv quvvat kompensatsiyasi qilish omillari o'rganilgan. Natijada energiya tejamkor boshqaruv tizimlari, fazani siljituvchi qurilmalar yordamida o'zaro saf, aylanma magnit maydonni hosilqilish maqsadida foydalanilgan faza buruvchi elementlarning qo'llanish usullari va prinsipial sxemalari keltirilgan. Bir fazali asinxron motorning statorida bir fazali chulg'am va staort o'zak pazlarining tuzulishi hamda magnit momentining grafiklari tahlillari yoritilingan.

Kalit so'zla: asinxron motor stator chulg'amlari, elektomagnit moment, reaktiv quvvat iste'moli, sof aylanma magnit maydon, faza buruvchi elemnt, Mexanik xarakteristika.

Аннотация: проанализированы режимы работы однофазных асинхронных двигателей, поставляемых от однофазного источника на мировом производстве и предприятиях, методы их совершенствования с целью повышения эффективности, снижения энергопотребления и повышения

надежности. В исследовании изучались факторы, влияющие на момент запуска двигателя, коэффициент мощности, тепловые потери и компенсацию реактивной мощности. В результате получены методы применения и принципиальные схемы фазовращательных элементов, применяемых с целью создания взаимосвязанного, вращательного магнитного поля с помощью энергоэффективных систем управления, устройств сдвига фаз. На статоре однофазного асинхронного двигателя показана структура Клинов однофазного сердечника и сердечника стаорта, а также анализ графиков магнитного момента.

Ключевое слово: статор асинхронного двигателя, электромагнитный момент, реактивное энергопотребление, чистое вращающееся магнитное поле, фазовращательный элемент, механическая характеристика.

Introduction

Manufacturing enterprises are considered to be one of the main factors of economic growth of countries in the world. Analysis shows that 70-75% of the generated electricity is consumed by asynchronous motors, and 20-25% of the asynchronous motors used in industrial production enterprises are single-phase asynchronous motors. The stator of a single-phase asynchronous motor has a single-phase winding, and the rotor has a short-circuited winding. The stator winding is located in 2/3 of the core slots, this system starts the asynchronous motor by creating a mutual Φμ-magnetic flux in the inductive windings of the asynchronous motor, which are symmetrically arranged with a mutual angular displacement of 900. When starting a single-phase asynchronous motor, there are many electrical devices and elements as phase-shifting elements, the most common of which is a capacitor.




Figure 1

Graph of a single-phase asynchronous motor generating a rotating magnetic field

Phase shifting using a phase-shifting element capacitor the phase of the magnetic field is shifted using a capacitor connected in series with the winding. The capacitance of the capacitor is determined as follows:

ISSN 3030-3907

$$C = \frac{I_a}{2\pi f U \sin\phi}$$

where:

C — capacitor capacity (F),

I_a — auxiliary winding current (A),

f — network frequency (Hz),

U — voltage (V),

φ — phase angle.

When a properly selected capacitor is used for starting asynchronous motors supplied from a single-phase source, it increases the starting torque of the capacitor by 30–50%, improving the power factor from 0.6 to 0.85. It is known that during starting an asynchronous motor consumes five to seven times more reactive power than the nominal one, as a result of which the waste in the network and the device increases. Compensation of reactive power ensures stable and stable operation of the device and helps to save money on electricity. The mechanical characteristics of a single-phase asynchronous motor are graphically represented in Figure (b). This characteristic shows the relationship between the motor speed (n) and the electromagnetic torque (M). The graph shows that when the motor is started at zero speed, the torque also starts from zero. As the speed increases, the torque gradually increases and reaches its critical (maximum) value. After the critical point, the torque decreases and the motor continues in the stable operation section. This process shows how the motor behaves under load. With the help of mechanical characteristics, the load carrying capacity, stable operation range and efficiency of the motor are determined. Therefore, this characteristic is of great importance in selecting a motor in practice and its proper operation.




Figure 2 Slip torque graph of a single-phase asynchronous motor.

In single-phase asynchronous motors, part of the power drawn from the network is spent on reactive power. To reduce it, compensation capacitors are used:

$$Q_c = P(\tan\phi_1 - \tan\phi_2)$$

ISSN 3030-3907

where:

Q_c — compensated reactive power,

P — active power,

φ_1, φ_2 — power angles before and after compensation.

Method: Electronic control systems optimize the speed, torque and heat losses of single-phase motors controlled by inverters by changing the voltage and frequency. In such systems:

Energy consumption is reduced by 15–25%,

Motor heating temperature is reduced by 10–15°C,

Operation smoothness increases.

1. The main sources of losses in single-phase asynchronous motors are phase imbalance and reactive power.

2. When using capacitor phase shifting and compensation methods, the useful energy efficiency increases by 0.15–0.25 units.

3. Electronic control and automatic protection systems extend the service life of the motor and reduce maintenance costs.

4. In the future, the efficiency of single-phase motors will be further increased with inverter and artificial intelligence-based control systems.




Figure 3 Capacitor starting circuit of a single-phase asynchronous motor equipped with a starting coil (d); K is a switch.

A characteristic feature of a single-phase asynchronous motor is that it cannot create a rotating magnetic field when directly connected to a single-phase network. Therefore, an additional coil and a capacitor are used to start the motor. Figure (d) shows such a capacitor starting circuit.

In the above circuit, in addition to the main stator coil, there is a starting (auxiliary) coil, which is connected through a capacitor. When the motor is started using a switch, the auxiliary coil is connected to the circuit and a phase shift is created. As a result, a rotating magnetic field is created in the stator, and the motor has a high starting torque. After the motor reaches the required speed, the auxiliary

ISSN 3030-3907

coil is disconnected by the switch and the motor continues to operate only at the expense of the main coil.

Conclusion: The article summarizes theoretical and experimental studies aimed at increasing the efficiency of single-phase asynchronous motors. During the study, the structural features of asynchronous motors, the interaction of electrical and mechanical parameters, the analysis of the torque-dependent graph of the load characteristic, and the influence of power supply conditions on efficiency were analyzed in detail. The results obtained showed that in order to increase efficiency, it is necessary not to be limited to one way, but to implement complex measures aimed at structural optimization, electrical control algorithms, reactive power compensation, and reducing mechanical losses. It was also confirmed that the adaptation of phase control and capacitor starting schemes significantly improves the load-dependent efficiency profile. From an economic and environmental perspective, measures to increase motor efficiency reduce electricity consumption, while at the same time reducing operating costs and the risk of thermal failures. Considering the share of single-phase asynchronous motors in total energy consumption, especially in industrial and domestic applications, improving efficiency at the individual level can provide significant energy savings at the system level.

LITERATURE

1. Pirmatov N. et al. Characteristics of the static and dynamic operating modes of the asynchronous generator in renewable energy sources and the production of electric energy control through a frequency converter //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 480. – C. 01007.
2. Аъзамов С. С. Улучшение механической прочности электрических проводов высокого напряжения //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-5. – С. 47-49.
3. Pirmatov N. et al. Energy saving using a frequency converter in asynchronous motor operating modes //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 508. – C. 08011.
4. Pirmatov N. et al. Characteristics of the static and dynamic operating modes of the asynchronous generator in renewable energy sources and the production of electric energy control through a frequency converter //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 480. – C. 01007.
5. Parpiev OB, Egamov DA. Sinxron generatorlar va motorlar haqida ma'lumot //Osiyo ko‘p o‘lchovli tadqiqotlar jurnali. – 2021. – T. 10. – №. 9. – S. 441-445.
6. Аъзамов С. С. Анализ управления и контроля рассеяния реактивной мощности однофазного асинхронного двигателя, вырабатываемой

ISSN 3030-3907

Солнечными панелями //Universum: технические науки. – 2023. – №. 10-6 (115). – С. 18-21.

7. Boixanov Z. GES asinxron dvigatellarining nosimmetrik rejimlari [Symmetric modes of HPP asynchronous motors] //O‘zbekgidroenergetika-UzbekHydropower (2). – 2021. – С. 27-28.

8. A'zamov S. The investigation of electromagnetic current transformer performance characteristics for measuring and controlling the reactive power dissipation of a short-circuited rotor synchronous motor: ... //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 8. – №. 1. – С. 136-141.

9. A’zamov S. S. Suniy sug‘orish tizimlari iste’molchilarini glubinniy nasoslar yordamida uzluksiz ichimlik suvi ilan ta’minlash //international scientific and scientific-technical conference “water-energy and food security in the context of global climate change and water scarcity”. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 383-385.

ISSN 3030-3907

TABIIY CHARMNING DEFORMATSION XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH VA USTKI KIYIM ISHLAB CHIQARISHDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Muxammadova Zebiniso Olimovna
Buxoro texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn” kafedrasi
I-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: mukhammadova01@gmail.com
Tel: +998934554788

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy charmning deformatsion xususiyatlari tahlil qilinib, ularni ustki kiyim ishlab chiqarishda samarali qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida charmning cho‘ziluvchanligi, mustahkamligi, elastikligi va qoldiq deformatsiyaga chidamliligi laboratoriya sharoitida baholandi. Olingan natijalar asosida charm asosida tayyorlanadigan ustki kiyimlar uchun optimal texnologik yondashuvlar taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: tabiiy charm, elastiklik, deformatsion xususiyat, cho‘zilish, ustki kiyim, materialshunoslik

Аннотация: В статье анализируются деформационные свойства натуральной кожи и рассматриваются возможности их эффективного использования в производстве верхней одежды. В ходе исследования в лабораторных условиях оценивались эластичность, прочность, упругость и устойчивость к остаточной деформации кожи. На основании полученных результатов предложены оптимальные технологические решения для изготовления верхней одежды из кожи.

Ключевые слова: натуральная кожа, эластичность, деформационные свойства, удлинение, верхняя одежда, материаловедение

Abstract: This article analyzes the deformation properties of natural leather and considers the possibilities of their effective use in the production of outerwear. During the study, the elasticity, strength, elasticity and resistance to residual deformation of leather were evaluated in laboratory conditions. Based on the results obtained, optimal technological approaches for outerwear made of leather were proposed.

Keywords: natural leather, elasticity, deformation properties, elongation, outerwear, materials science

Kirish

So‘nggi yillarda yengil sanoat, xususan, ustki kiyimlar ishlab chiqarishda tabiiy charm materiallariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Tabiiy charm o‘zining issiqlikni saqlash, shamol va namlikdan himoya qilish, hamda estetik ko‘rinishi tufayli yuqori baholanadi. Biroq charmning turli xildagi fizik-mexanik xususiyatlari uni mahsulot ishlab chiqarishda murakkab materialga aylantiradi.

ISSN 3030-3907

Ayniqsa, charmning deformatsiyaga bo‘lgan munosabati — ya’ni cho‘zilishi, siqilishi, elastikligi va shaklni tiklash xususiyati — ustki kiyim konstruksiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

.Tabiiy charm materialining tarkibi va tuzilishi

Tabiiy charm — hayvonlarning terisidan maxsus texnologik ishlov berish natijasida olinadigan material bo‘lib, u kollagen tolalarining o‘ziga xos joylashuvi bilan ajralib turadi. Asosiy tarkibiy qismlar:

Kollagen oqsili (~70%)

Suv (~20%)

Yoqilg‘i moddalari, mineral tuzlar va yog‘lar (~10%)

Charmning mustahkamligi, elastikligi, havoni o‘tkazuvchanligi va deformatsiyaga bardoshliligi aynan shu tuzilmasi bilan bog‘liq.

Tadqiqot obyekti sifatida mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarning quyidagi turdagi charm namunalari tanlab olindi:

- qo‘ycharm

-mol charm

-echki charm

-buqa charm

Sinovlar quyidagi standartlarga asosan o‘tkazildi:

ISO 3376 – cho‘zilish kuchi va foizini aniqlash

ASTM D2209 – charmning deformatsion xatti-harakati

O‘zDSt 3057 – charm sifati bo‘yicha me’yorlar

Namuna o‘lchami: 100 mm × 20 mm, kesish yo‘nalishi — to‘qima tolalariga parallel va perpendikulyar.

Deformatsion xususiyatlarning tahlili

Cho‘ziluvchanlik:

Cho‘zilish sinovlari natijasida charm turlarining maksimal cho‘zilish darajasi quyidagicha aniqlandi:

№	Charm turi	Maks. cho‘zilish (%)	Yorilish kuchi (MPa)
1	Qo‘ycharm	38%	18 MPa
2	Mol charm	25%	24 MPa
3	Echki charm	42%	16 MPa
4	Buqa charm	20%	28 MPa

ISSN 3030-3907

Tahlil: Echki charm eng yuqori choʻziluvchanlikka ega boʻlsa-da, uning yorilish kuchi past. Bu esa uni egiluvchan, ammo kam bardoshli qiladi. Buqa charm esa teskari xususiyatlarga ega: kam choʻziladi, lekin juda mustahkam.

Qoldiq deformatsiya va elastiklik: Elastiklik charmning shaklini qayta tiklash qobiliyatini koʻrsatadi. Testlar 20% choʻzilishdan keyin olib borildi:

№	Charm turi	Qoldiq deformatsiya (%)	Elastiklik bahosi
1	Qoʻycharm	5.2%	Yuqori
2	Mol charm	3.8%	Oʻrtacha
3	Echki charm	7.5%	Past

Xulosa: Qoʻycharm shaklni yaxshi tiklaydi va koʻproq elastiklikka ega. Bu uni harakatda boʻlgan ustki kiyimlar uchun mos qiladi.

Tabiiy charm nafaqat mustahkam, balki estetik jozibadorligi bilan ham ajralib turadi. Ustki kiyimlarda charm quyidagi elementlarda keng qoʻllaniladi:
Kurtkalar (koʻproq qoramol terisidan)
Plashlar va paltolar
Choyshabli (lining) detallari
Dekorativ elementlar

Charmning deformatsion xususiyatlarini bilish dizaynerlar uchun muhimdir. Masalan, yelka va tirsak qismida koʻproq choʻziluvchan charm qoʻllanilishi zarur. Bu esa kiyimning qulayligini oshiradi.

Tabiiy charmning deformatsiyaga chidamliligini hisobga olib, ishlab chiqaruvchilarga quyidagilar tavsiya qilinadi:

Kiyimlar uchun moʻljallangan charm turlari elastiklik va yengillik boʻyicha saralanishi lozim

Charmga ishlov berishda ekologik toza texnologiyalardan foydalanish kerak
Charmni boshqa materiallar (tekstil, sintetik) bilan kombinatsiyalash orqali yangi dizaynlar yaratish mumkin

Shuningdek, charmni qayta ishlash orqali ekologik muhitga kamroq zarar yetkazish imkoniyati mavjud.
Ustki kiyim tayyorlashdagi amaliy natijalar:

Sinov natijalari asosida charm materiallari ustki kiyimlarda quyidagicha tavsiya etiladi:

№	Kiyim turi	Tavsiya etilgan charm	Sabablar

ISSN 3030-3907

1	Ko‘ylagi (yengil)	Qo‘ycharm	Yengil, elastik, yumshoq
2	Plash	Mol charm	Mustahkam, shaklni yaxshi ushlab turadi
3	Kurtka (sport)	Echki charm	Egiluvchan, ammo ikki qatlamli qilish lozim
4	Jilet, palto	Buqa charm	Qattiq, issiqlikni saqlaydi

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tabiiy charmning deformatsion xususiyatlari uni ustki kiyimlarda ishlatishda muhim parametr hisoblanadi. Materialning cho‘ziluvchanligi, elastikligi va qoldiq deformatsiyaga chidamliligi asosida turli kiyimlar uchun mos charm turi tanlanishi kerak. Mazkur tahlil asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar kiyim konstruksiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ISO 3376: Leather – Physical and mechanical tests – Determination of tensile strength.
2. ASTM D2209 – Standard Test Method for Stretch Properties of Leather.
3. O‘zDSt 3057 – Charm va charm mahsulotlari sifat ko‘rsatkichlari.
4. Мухаммадиев С.А. «Материаловедение в легкой промышленности», Т., 2019.
5. Karimov A., Khidirova G. «Textile and Leather Technology», TATU, 2022.
6. Xalqaro ilmiy jurnallar: Leather and Footwear Journal, Journal of Materials in Fashion.

ISSN 3030-3907

INSON QO‘LI KUCHI IMKONIYATLARINI O‘RGANISH VA ULARNING NOGIRON HAYDOVCHILAR UCHUN AVTOMOBILNI QO‘LDA BOSHQARISH MOSLAMALARINI LOYIHALASHDAGI AHAMIYATI

Qayumov Baxrom Abdullajonovich
Andijon davlat texnika instituti PhD, dotsent,
Yoqubov Yoqubjon Odil o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti katta o‘qituvchi,
Voxobov Rustamjon Abdumannob o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti tayanch doktorant,

Annotatsiya. Bugungi kunda har qanday mahsulot yoki texnik qurilma ishlab chiqarilishidan avval uning foydalanuvchilar uchun qulayligi, ergonomik mosligi va fiziologik imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun avtomobilni qo‘lda boshqarish moslamalarini yaratishda insonning antropometrik va biomexanik ko‘rsatkichlari, xususan qo‘l kuchi (grip va pinch strength) muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada 17 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan erkak va ayollarda qo‘l kuchi imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda ularning nogiron haydovchilar uchun avtomobilni qo‘lda boshqarish moslamalarini loyihalashdagi amaliy ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: antropometriya, grip strength, pinch strength, ergonomika, qo‘l harakati, qo‘lda boshqaruv, nogiron haydovchilar, JAMAR dinamometri, foydalanuvchi imkoniyatlari.

Abstract. Today, before the production of any product or technical device, a comprehensive analysis of its user friendliness, ergonomic suitability, and physiological capabilities is conducted. In particular, when creating hand controls for people with disabilities, human anthropometric and biomechanical parameters, particularly hand strength (grip and pinch strength), play a significant role. This article analyzes the hand strength capabilities of men and women aged 17 to 70 years and substantiates their practical significance in the design of hand controls for disabled drivers.

Keywords: anthropometry, grip strength, pinch strength, ergonomics, hand motion, hand control, disabled drivers, JAMAR dynamometer, user capabilities.

Аннотация. Сегодня перед производством любого изделия или технического устройства проводится комплексный анализ его удобства для пользователя, эргономической пригодности и физиологических возможностей. В частности, при создании устройств ручного управления транспортными средствами для людей с ограниченными возможностями антропометрические и биомеханические показатели человека, в частности сила кисти (сила захвата и щипка), играют важную роль. В данной статье

ISSN 3030-3907

анализируются силовые возможности кисти мужчин и женщин в возрасте от 17 до 70 лет и обосновывается их практическое значение при проектировании устройств ручного управления транспортными средствами для водителей-инвалидов.

Ключевые слова: антропометрия, сила захвата, сила щипка, эргономика, движение руки, ручное управление, водители-инвалиды, динамометр JAMAR, возможности пользователя.

Kirish.

Bugungi kunda har qanday mahsulotni ishlab chiqishdan oldin uning ergonomik parametrlari o‘rganiladi. Mahsulot insonning tabiiy harakatiga mos, foydalanishda qulay va xavfsiz bo‘lishi talab etiladi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo‘ljallangan texnik qurilmalarda bu talablar yanada muhimdir.

Oyoq harakati cheklangan shaxslar uchun avtomobilni qo‘lda boshqarish qurilmalari loyihalanayotganda, insonning qo‘l kuchi, barmoqlarning qisish imkoniyati, bilak burilish burchaklari va charchash ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Ushbu ma’lumotlar yordamida tormoz, gaz, va uzatmalarni qo‘l bilan boshqarish tizimlarining mexanik afzalliklari, tutqich diametri, hamda qarshilik momentlari tanlanadi.

Qo‘lning kuch imkoniyatlari haqida so‘nggi yillarda dunyo miqyosida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning aksariyati qo‘lning ushlash kuchi (keying o‘rinlarda - **grip kuchi**) va barmoqlar qisish kuchi (keying o‘rinlarda - **pinch kuchi**)ni yosh, jins va antropometrik o‘zgaruvchilar bilan bog‘liq holda o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu ma’lumotlar nogiron haydovchilar uchun avtomobilni qo‘lda boshqarish qurilmalarining mexanik parametrlarini aniqlashda, xususan tutqich kuch talabi, richag yordamida boshqariladigan qurilmalarning mexanik afzallik koeffitsienti va xavfsizlik me’yorlarini belgilashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Inson qo‘li kuchining yosh va jins bo‘yicha o‘zgarishlari.

Qo‘l kuchi har bir insonning mushak-skelet tizimi imkoniyatini ifodalovchi universal biomarker hisoblanadi [1]. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, qo‘l kuchi 30–40 yosh oralig‘ida maksimal qiymatga erishadi, undan so‘ng esa yosh o‘tishi bilan asta-sekin kamayadi [2;3].

Erkaklarda qo‘l kuchining o‘rtacha qiymati 43–45 kg atrofida bo‘lsa, ayollarda bu ko‘rsatkich 25–27 kg atrofida bo‘ladi [4]. 60 yoshdan keyin esa erkaklarda har 10 yilda o‘rtacha 5–7 %, ayollarda 7–10 % kamayish kuzatiladi.

Bu farq jinsiy va gormonal omillar, mushak massasi, suyak zichligi hamda antropometrik ko‘rsatkichlarning farqliligi bilan izohlanadi [5]. Bundan tashqari, qo‘l kuchining pasayishi insonning umumiy salomatligi bilan ham chambarchas

ISSN 3030-3907

bog‘liq bo‘lib, u hayot sifati, yurak-qon tomir tizimi va kognitiv faoliyatning muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi [6].

Qo‘l kuchi o‘lchovi uchun JAMAR gidravlik dinamometri, barmoq qisish kuchi uchun JAMAR pinch gauge qurilmalaridan foydalanish aniq natijalarni olishda yordam beradi.



1-rasm. Jamar gidravlik qo‘l dinamometri



2-rasm. Jamar gidravlik kuch qisish o‘lchagich

Barmoqlar qishish kuchi (Pinch kuchi) ning tahlili

Qo‘l barmoqlari qisish (pinch) kuchi, ayniqsa bosh barmoq harakatini o‘z ichiga olgan harakatlarda, nozik boshqaruv talab qiluvchi qurilmalarda muhim ahamiyatga ega. Mathiowetz va Crosby & Wehbé tadqiqotlariga ko‘ra, pinch kuchi odatda grip kuchining 15–20 % ini tashkil etadi. Masalan, erkaklarda o‘rtacha pinch kuchi 9–10 kg, ayollarda esa 6–7 kg oralig‘ida.

Bu nisbat qo‘l bilan boshqariladigan avtomobil tizimlarida bosh barmoq bilan amalga oshiriladigan tugma, tortish yoki bosish orqali ish bajaradigon mexanizmlar uchun kuch talabini 5–15 N oralig‘ida saqlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, pinch kuchi nisbatan barqaror bo‘lib, yosh o‘tishi bilan kamroq o‘zgaradi, bu esa uni nozik mexanik harakatlarni boshqarish uchun ishonchli biomexanik ko‘rsatkichga aylantiradi.

Qo‘l kuchiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

Turli tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, qo‘l kuchiga quyidagi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [7,8,9]:

Jins – erkaklarda mushak massasi yuqori bo‘lgani sababli kuch ko‘rsatkichlari yuqori;

Yosh – mushak elastikligi va kuchi yosh bilan kamayadi;

ISSN 3030-3907

Bo‘y va vazn – antropometrik kattaliklar bilan musbat korrelyatsiyada;
Bilak aylana – eng muhim anatomik determinant;
Qo‘l uzunligi – ayniqsa pinch kuchiga ta’sir qiladi;
Qo‘l eni – mustaqil ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, ko‘pincha bilak qalinligi bilan bog‘liq.

Natija va muhokama. Gachette va Lauwers o‘z tadqiqotida bu omillarni regressiya tahlili asosida quyidagi prognoz formulalar bilan ifodalagan [4]:
Grip kuchi (kg):
$G = -70.958 + (-0.139 \times \text{Yosh}) + (8.590 \times \text{Jins}) + (0.307 \times \text{Bo‘y}) - (0.232 \times \text{Vazn}) + (2.431 \times \text{Eng qalin bilak aylana})$
Pinch kuchi (kg):
$P = -12.619 + (1.715 \times \text{Jins}) - (0.049 \times \text{Vazn}) + (0.534 \times \text{Eng qalin bilak aylana}) + (0.407 \times \text{Qo‘l uzunligi})$
Bu formulalar antropometrik ma’lumotlar asosida shaxsiy prognoz qilish imkonini beradi.

1-jadval.

O‘rtacha grip va pinch kuchlari.

Jins	Yosh oralig‘i	Grip kuchi (kg)	Pinch kuchi (kg)
Erkaklar	17–29	45.0 ± 8.2	10.1 ± 1.5
Erkaklar	30–49	44.2 ± 7.4	9.8 ± 1.6
Erkaklar	50–69	39.5 ± 6.8	9.1 ± 1.3
Ayollar	17–29	27.5 ± 5.9	6.6 ± 1.2
Ayollar	30–49	26.3 ± 5.5	6.4 ± 1.1
Ayollar	50–69	22.8 ± 4.8	5.8 ± 1.0

Natijalar shuni ko‘rsatadiki erkaklar ayollarga nisbatan 60–65% kuchliroq gripga ega. Yosh o‘tishi bilan grip kuchi erkaklarda o‘rtacha har 10 yilda 5–7%, ayollarda 7–10% kamayadi. Pinch kuchi esa nisbatan barqaror, faqat keksalikda 0.5–1.0 kg atrofida pasayadi.

Xalqaro tadqiqotlar va olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, erkaklarda qo‘l kuchi 43–45 kg atrofida bo‘lsa, ayollarda 25–27 kg atrofida.

Imkoniyati cheklangan haydovchilar uchun ishlab chiqiladigan qo‘l boshqaruv moslamalari ergonomik va biomexanik talablarni to‘liq qondirishi kerak. Tadqiqotlar natijasida aniqlangan me’yoriy qiymatlar asosida quyidagi muhim dizayn talablarini belgilash mumkin:

Minimal operatsion kuch - qo‘l kuchining 10–15 % dan oshmasligi zarur. Bu taxminan 5–15 N oralig‘idagi kuchga teng (ayollarning 10-centil qiymatlari hisobga olingan holda).

ISSN 3030-3907

Mexanik afzallik koeffitsienti - minimal kuch bilan maksimal boshqaruv effektini ta’minlash uchun 1.8–2.5 diapazonida bo‘lishi lozim, keksalar uchun esa 3.0 gacha oshiriladi.

Tutqich diametri - JAMAR pozitsiyasidagi optimal ergonomik holatga mos ravishda 30–40 mm diametrli tutqich eng qulay natijani beradi [2].

Sirt materiali - sirpanmas, yengil yumshoq materiallardan (rezina, silikon, teksturali plastmassa) foydalanish tavsiya etiladi.

Servo-assist tizimlari - keksalar yoki past mushak kuchiga ega foydalanuvchilar uchun elektr yordamchi mexanizmlar (servo aktuatorlar) qulaylik va xavfsizlikni oshiradi [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 17-70 yosh oralig‘ida qo‘l kuchi yoshi bilan kamayadi, lekin jinsiy farq doimiy saqlanadi. Qo‘l kuchiga asosiy ta’sir etuvchi omillar - jins, yosh, vazn, bilak aylana va qo‘l uzunligidir. Qo‘l ushlash (grip) kuchi 30–40 yoshda eng yuqori bo‘lib, 60 yoshdan so‘ng sezilarli kamayadi.

Nogiron haydovchilar uchun avtomobilni qo‘lda boshqarish moslamalarini loyihalashda minimal boshqaruv kuchi 5–15 N oralig‘ida, mexanik afzallik koeffitsienti esa 1.8–2.5 oralig‘ida bo‘lishi tavsiya etiladi. Tutqich diametri 30–40 mm, sirt esa sirpanmas bo‘lishi foydalanuvchi qulayligini oshiradi. Ergonomik loyihalashda antropometrik ma’lumotlar - qo‘l uzunligi, bilak qalinligi, barmoq oralig‘I - moslashtirilgan holda inobatga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bohannon R.W. Grip Strength: An indispensable biomarker for older adults // Clinical Interventions in Aging. – 2019. – T. 14. – S. 1681–1691. – DOI: 10.2147/CIA.S194543.

2. Mathiowetz V., Kashman N., Volland G., Weber K., Dowe M., Rogers S. Grip and pinch strength: Normative data for adults // Archives of Physical Medicine and Rehabilitation. – 1985. – T. 66, №2. – S. 69–74.

3. Dodds R.M., Syddall H.E., Cooper R., Benzeval M., Deary I.J., Dennison E.M., Der G., Gale C.R., Inskip H.M., Jagger C., Kirkwood T.B.L., Lawlor D.A., Robinson S.M., Starr J.M., Steptoe A., Tilling K., Kuh D., Cooper C., Sayer A.A. Grip strength across the life course: normative data from twelve British studies // PLoS ONE. – 2014. – T. 9, №12. – e113637. – DOI: 10.1371/journal.pone.0113637.

4. Gachette R.E., Lauwers T. Grip & Pinch Strength in Relation to Anthropometric Data in Adults // Journal of Orthopedic Research and Physiotherapy. – 2018. – T. 4, №1. – S. 39. – DOI: 10.24966/ORP-2052/100039.

5. Günther C.M., Bürger A., Rickert M., Crispin A., Schulz C.U. Grip strength in healthy Caucasian adults: Reference values // Journal of Hand Surgery (American Volume). – 2008. – T. 33, №4. – S. 558–565. – DOI: 10.1016/j.jhsa.2008.01.010.

ISSN 3030-3907

6. Leong D.P., Teo K.K., Rangarajan S., Lopez-Jaramillo P., Avezum A., Orlandini A., Seron P., Ahmed S.H., Rosengren A., Kelishadi R., Rahman O., Yusuf R., Chifamba J., Igumbor E., Mohan V., Anjana R.M., Gu H., Li W., Yusuf S. Prognostic value of grip strength: findings from the PURE study // The Lancet. – 2015. – T. 386, №9990. – S. 266–273. – DOI: 10.1016/S0140-6736(14)62000-6.
7. Shim J.H., Roh S.Y., Kim J.S., Lee D.C., Ki S.H., Yang J.W., Jeon I.H. Normative measurements of grip and pinch strengths of 21st-century Korean population // Archives of Plastic Surgery. – 2013. – T. 40, №1. – S. 52–56. – DOI: 10.5999/aps.2013.40.1.52.
8. Lopes J., Grams S.T., da Silva E.F., de Medeiros L.A., de Brito C.M.M., França N.M. Reference equations for handgrip strength: normative values in young adult and middle-aged subjects // Clinical Nutrition. – 2018. – T. 37, №3. – S. 914–918. – DOI: 10.1016/j.clnu.2017.03.012.
9. Anakwe R.E., Huntley J.S., McEachan J.E. Grip strength and forearm circumference in a healthy population // Journal of Hand Surgery (European Volume). – 2007. – T. 32, №2. – S. 203–209. – DOI: 10.1016/j.jhsb.2006.09.024.
10. Crosby C.A., Wehbé M.A. Hand strength: Normative values // Journal of Hand Surgery (American Volume). – 1994. – T. 19, №4. – S. 665–670. – DOI: 10.1016/0363-5023(94)90102-3.

ISSN 3030-3907

XITOZAN MODIFIKATSIYALANGAN METAKRIL SOPOLIMERLARI BILAN BIODIEZEL ARALASHMALARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI

Saidov J.E.
Irrigatsiya va suv muommolari ilmiy tadqiqot instituti
Boltayev B.B
Irrigatsiya va suv muommolari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida xitozan asosida modifikatsiyalangan metakril sopolimerlarining biodiezel yoqilg‘i aralashmalarining fizik-kimyoviy xossalariga ta'siri keng qamrovli o‘rganilgan. Xitozan tabiiy polimer sifatida o‘zining biouyg‘unligi, bioparçalanuvchanligi va funksional guruhlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi, metakril kopolimerlari esa past haroratdagi oqimlilik xossalarini yaxshilash maqsadida qo‘llaniladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xitozan-metakril sopolimer kompozitlari biodieselning sovuq filtr tiqilish nuqtasini, quyilish nuqtasini va viskozitesini sezilarli darajada pasaytiradi, shu bilan birga oksidlanish barqarorligini ham oshiradi. Eksperimental ma'lumotlar asosida 2000 ppm konsentratsiyada qo‘shilgan xitozan-modifikatsiyalangan tetradesilmetakrilat sopolimerlari biodiezelning past haroratdagi ishlash parametrlarini 12-15°C ga yaxshilashi aniqlandi. Polimer qo‘shimchalarning molekulyar og‘irligi, alkil zanjir uzunligi va funksional guruhlarning tabiati ham muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: xitozan, metakril sopolimerlari, biodiesel, fizik-kimyoviy xossalar, sovuq oqimlilik, oksidlanish barqarorligi, polimer qo‘shimchalar, viskozite

Аннотация: В данной исследовательской работе всесторонне изучено влияние метакриловых сополимеров, модифицированных хитозаном, на физико-химические свойства смесей биодизельного топлива. Хитозан, как природный полимер, характеризуется биосовместимостью, биоразлагаемостью и большим количеством функциональных групп, в то время как метакриловые сополимеры используются для улучшения низкотемпературных реологических свойств. Результаты исследования показали, что композиты хитозан-метакриловый сополимер значительно снижают температуру фильтруемости, температуру застывания и вязкость биодизеля, одновременно повышая его окислительную стабильность. На основании экспериментальных данных установлено, что добавление сополимеров тетрадецилметакрилата, модифицированных хитозаном, в концентрации 2000 ppm улучшает низкотемпературные эксплуатационные характеристики биодизеля на 12–15 °C. Молекулярная масса полимерных добавок, длина алкильной цепи и природа функциональных групп также играют важную роль. Ключевые слова: хитозан, метакриловые сополимеры,

ISSN 3030-3907

биодизельное топливо, физико-химические свойства, хладотекучесть, устойчивость к окислению, полимерные присадки, вязкость.

Ключевые слова: хитозан, метакриловые сополимеры, биодизельное топливо, физико-химические свойства, хладотекучесть, устойчивость к окислению, полимерные присадки, вязкость.

Abstract: In this research work, the effect of chitosan-modified methacrylic copolymers on the physicochemical properties of biodiesel fuel blends was comprehensively studied. Chitosan, as a natural polymer, is characterized by its biocompatibility, biodegradability and a large number of functional groups, while methacrylic copolymers are used to improve low-temperature flow properties. The results of the study showed that chitosan-methacrylic copolymer composites significantly reduce the cold filter plugging point, pour point and viscosity of biodiesel, while increasing its oxidation stability. Based on experimental data, it was found that chitosan-modified tetradecyl methacrylate copolymers added at a concentration of 2000 ppm improve the low-temperature performance parameters of biodiesel by 12-15°C. The molecular weight of the polymer additives, the length of the alkyl chain and the nature of the functional groups also play an important role.

Keywords: chitosan, methacrylic copolymers, biodiesel, physicochemical properties, cold flowability, oxidation stability, polymer additives, viscosity

Kirish

Hozirgi zamon energetika sektorida qayta tiklanadigan yoqilg‘ilar, xususan biodiezel muqobil yoqilg‘i sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu yo‘nalish ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda neft mahsulotlariga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi[1]. Biodiezel o‘simlik moylari yoki hayvon yog‘laridan transesterifikatsiya jarayoni orqali olinadi va uning tarkibida to‘yingan hamda to‘yinmagan uzun zanjirli yog‘ kislotalarining metil efirlari mavjud bo‘lib, bu xususiyat yoqilg‘ining fizik va kimyoviy xossalarini bevosita belgilaydi[2]. Biodieselning asosiy afzalliklari orasida yuqori yonish samaradorligi, zaharli chiqindilarning kamligi va yaxshi moylash xususiyatlari keladi, ammo uning past haroratdagi oqimlilik parametrlari va oksidlanishga moyilligi keng miqyosda qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi[3].Xitozan - bu dengiz qisqichbaqasimonlar, hasharotlar va zamburug‘lardan ajratib olinadigan tabiiy polimerdir hamda u kitinning deasetillash jarayoni natijasida hosil bo‘ladi. Xitozanning asosiy afzalligi shundaki, uning tarkibida amino va gidroksil funktsional guruhlari mavjud bo‘lib, bu guruhlar kimyoviy modifikatsiyaga juda qulay sharoit yaratadi. Kimyoviy modifikatsiyalangan xitozan native xitozanga nisbatan suvda eruvchanligi, biologik faolligi va mexanik xususiyatlari ancha yaxshilangan holatda namoyon bo‘ladi[1]. Xitozan va uning hosilalari kataliz,

ISSN 3030-3907

adsorbsiya, dori preparatlarini tashish va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda[2]. Xitozanning kristallanishi, viskozitesi, eruvchanlik xususiyati va ion almashinuv qobiliyati deasetillash darajasiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 55% dan ortiq deasetillashga ega bo‘lgan xitin tarkibiy moddalar xitozan sifatida tasniflanadi[3].

1-Jadval

Turli xitozan modifikatsiyalarining fizik-kimyoviy xossalari va qo‘llanilish sohalari

Modifikatsiya turi	Molekulyar og‘irlik (kDa)	Deasetillash darajasi (%)	Eruvchanlik (pH)	Asosiy qo‘llanilish
Native xitozan	100-1000	70-95	< 6.0	Bazaviy katalizator
Karboksimetil xitozan	50-500	75-85	2.0-12.0	Emulsifikator, membranalar
Xitozan-PVA kompozit	150-800	80-90	< 5.5	Geterogen katalizator
Xitozan-SiO_2 kompozit	200-600	70-85	< 6.5	Tozalash membranasi
Past molekulyar xitozan	5-50	85-95	3.0-7.0	Antioksidant qo‘shimcha
Xitozan-metakril graft	100-400	75-90	< 5.0	Oqimlilik yaxshilovchi

Metakril sopolimerlari esa uzoq vaqtdan beri dizel yoqilg‘i va biodiezel uchun quyilish nuqtasini pasaytiruvchi qo‘shimchalar sifatida tanilgan[4]. Bu polimerlar o‘zining alkil yon zanjirlarining uzunligi va polar guruhlarning mavjudligi tufayli mum kristallarining shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadi va ularning agregatsiyasini kamaytiradi hamda yoqilg‘ining past haroratdagi oqimlilik xususiyatlarini yaxshilaydi[5]. Turli tadqiqotlarda metakrilat kopolimerlarining tarkibidagi alkil zanjir uzunligining C12 dan C18 gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgarishi biodieselning sovuq filtr tiqilish nuqtasi (CFPP) va quyilish nuqtasiga (PP) sezilarli

ISSN 3030-3907

ta'sir ko‘rsatishi aniqlangan[6]. Ayniqsa, tetradesilmetakrilat (C14) asosidagi sopolimerlar eng samarali natijalar berishi ma'lum bo‘ldi[7]. Metakrilat kopolimerlarining viskoziteni o‘zgartirish va past harorat xususiyatlarini yaxshilash qobiliyati ularning molekulyar og‘irligi va monomerlarning nisbati bilan chambarchas bog‘liq[8]. Polimerakrilat tipidagi qo‘shimchalarning asosiy ish mexanizmi shundan iboratki, ular mum kristallarining yuzasiga adsorbsiya qilib, kristallarning o‘sishini cheklaydi va ularning shakli ignasimon bo‘lishiga yordam beradi, natijada kristallar filtrlarda to‘planmaydi[9].

2-Jadval.

Turli metakril sopolimerlarining B20 biodiesel aralashmasining sovuq oqimlilik parametrlariga ta'siri (CFPP - sovuq filtr tiqilish nuqtasi, PP - quyilish nuqtasi, CP - bulutlanish nuqtasi)

Sopolimer turi	Konsentratsiya (ppm)	CFPP kamaytirish (°C)	PP kamaytirish (°C)	CP kamaytirish (°C)	Adabiyot
C14MC-HEMA (9:1)	2000	6	14	4	[21]
C14-Alkil metakrilat-MA	1000	7	7	3	[22]
MB-C14MC (1:10)	3000	12	26	8	[23]
PMA (10-320)	1000	10	12	5	[25]
C14MC-NA (6:1)	2000	9	10	3	[23]
C14MC-CVE (9:1)	2000	10	15	6	[21]

ISSN 3030-3907

Sopolimer turi	Konsentratsiya (ppm)	CFPP kamaytirish (°C)	PP kamaytirish (°C)	CP kamaytirish (°C)	Adabiyot
Xitozan-C14MC kompozit	1500	8	12	5	[5,7]

Xitozan-polivinil alkogol (PVA) kompozit plyonkalari heterogen katalizator sifatida biodiezel ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin va bu materiallar ajratish jarayonini osonlashtiradi[10]. Xitozan/PVA kompozitlarining suvni yutish qobiliyati 45,42% dan 218,64% gacha, shishish darajasi 120,63% dan 142,99% gacha va g‘ovaklik 62,67% dan 243,43% gacha o‘zgarishi aniqlangan, bu ko‘rsatkichlar kompozitsiyaning tarkibiga bog‘liq[11]. Xitozan va uning kimyoviy modifikatsiyalangan shakllari biodiesel ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan katalizatorlar sifatida yuqori samaradorlik ko‘rsatadi chunki ularning tarkibidagi gidroksil va amino guruhlari turli kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etishi mumkin. Masalan, xitozanni CaO bilan birlashtirib qo‘llaganda soya yog‘idan biodiesel hosildorligi 97% ga yetadi[12]. Xitozanning sulfon guruhi bilan modifikatsiyalangan shakli heterogen kislotali katalizator sifatida palmitik kislotadan 89% hosil beradi. Xitozan va kremniy dioksid (SiO2) asosida tayyorlangan kompozit membranalar biodieselni tozalashda samarali bo‘lib, ular sovun darajasini 547,9 dan 12,2 mg/L gacha, erkin glitserin miqdorini 54% dan 0,041% gacha va kislota sonini 2,02 dan 1,12 mgKOH/g gacha kamaytiradi.Glitsil metakrilat va alkil metakrilatlar kopolimerlari yordamida xitozan materiallarining yuzasi modifikatsiyalanganda, ularning gidrofoblik xususiyatlari sezilarli darajada ortadi va kontakt burchak 89° dan 114° gacha ko‘tariladi[13]. Bu xususiyat xitozan-metakril sopolimerlarining biodiesel aralashmalarida emulsiyalarni barqarorlashtirish va fazalarni ajratish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Xitozan asosidagi kompozitlarning mexanik mustahkamligi va uzoq muddatli barqarorligi ham yuqori darajada bo‘lib, bu xususiyatlar ularni biodiesel qo‘shimchalari sifatida foydalanishga imkon beradi[14]. Karboksimetil xitozan (CMC) modifikatsiyasi xitozanning turli pH muhitlarida eruvchanligini nazorat qilish imkonini beradi, bu esa biodiesel ishlab chiqarish va tozalash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega[15]. Past molekulyar og‘irlikka ega xitozan (LMWC) yuqori biologik faollik ko‘rsatadi va o‘simliklarni himoya qiluvchi moddalar, o‘stiruvchi stimulyatorlar va antimikrobiyal vositalar sifatida qo‘llaniladi.Biodieselning sovuq oqimlilik xossalari uning keng qo‘llanilishidagi asosiy muammolardan biridir va bu muammo to‘yingan yog‘ kislotalarining esterlarining kristallanishiga bog‘liq.

ISSN 3030-3907

Biodieselning bulutlanish nuqtasi (CP), sovuq filtr tiqilish nuqtasi (CFPP) va quyilish nuqtasi (PP) uning past haroratdagi ishlash qobiliyatini belgilaydi. Ko‘pchilik o‘simlik moylaridan olingan B100 biodieselning bulutlanish nuqtasi 0°C atrofida bo‘lsa-da, hayvon yog‘lari va qovurilgan moylardan olingan biodieselnikida bu ko‘rsatkich 27°C gacha ko‘tarilishi mumkin[16]. Biodieselning viskozitesi harorat pasayganda ortadi va bu past haroratlarda foydalanishda muammolarga sabab bo‘ladi. Kinematik viskozite biodieselning asosiy xarakteristikalaridan biri bo‘lib, uning qiymati 40°C da 3,5-5,0 mm²/s oralig‘ida bo‘lishi standartlar bilan belgilangan. Biodieselning to‘yinganlik darajasi va uglerod zanjirining uzunligi ham viskozite va sovuq oqimlilik xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. To‘yingan esterlar yuqori erish nuqtasiga ega bo‘lib, ular past haroratlarda kristallanishga moyil[17]. Sovuq oqimlilik muammolarini hal qilish uchun turli yondashuvlar, jumladan, biodieselni dizel bilan aralashtirish, qo‘shimchalar qo‘llash va xom ashyoning tarkibini o‘zgartirish usullari mavjud[18].


4-Jadval

Turli antioksidantlarning soya biodieselining oksidlanish barqarorligiga ta'siri (Rancimat testi, 110°C)

Antioksidant turi	Konsentratsiya (ppm)	Induktiv period (soat)	Yaxshilanish (marta)	Narx samaradorligi
Qo‘shimchasiz	0	4.2	1.0	-
TBHQ (sintetik)	200	28.5	6.8	Yuqori
BHA (sintetik)	200	25.2	6.0	Yuqori
BHT (sintetik)	200	22.8	5.4	O‘rta
Propil gallat	300	26.4	6.3	O‘rta
α-Tokoferol (tabiiy)	400	18.9	4.5	Past
Xitozan kompozit	500	21.6	5.1	Yuqori

ISSN 3030-3907

Antioksidant turi	Konsentratsiya (ppm)	Induktiv period (soat)	Yaxshilanish (marta)	Narx samaradorligi
Xitozan-metakril	1500	9.8	2.3	O‘rta




Grafik 1. Xitozan-metakril sopolimer konsentratsiyasining B20 biodiesel aralashmasining CFPP ga ta'siri

Tetradesilmetakrilat-gidroksietilmetakrilat (C14MC-HEMA) kopolimerlari biodiesel aralashmalari uchun quyilish nuqtasini pasaytiruvchi qo‘shimchalar sifatida yuqori samaradorlik ko‘rsatadi[21]. C14MC-HEMA (9:1) tarkibli kopolimer B20 (20% biodiesel + 80% dizel) aralashmasining quyilish nuqtasini 14°C ga va CFPP ni 6°C ga pasaytiradi[21]. Gidroksil polar guruhlarining qo‘shilishi polimer qo‘shimchaning samaradorligini oshiradi chunki bu guruhlar mum kristallari bilan o‘zaro ta'sirlashib, ularning o‘sish mexanizmini o‘zgartiradi[21]. Alkil-metakrilat-malein angidrid kopolimerlari ham biodieselning oqimlilik xususiyatlarini yaxshilashda samarali bo‘lib, C14 alkil zanjirga ega polimer 1000 ppm konsentratsiyada chiqindi yog‘ biodieselining quyilish nuqtasini 12°C dan 5°C gacha tushiradi[22]. Benzil metakrilat-metakrilat kopolimerlari dizel yoqilg‘isining quyilish nuqtasini pasaytiruvchi sifatida tadqiq etilgan va MB-C14MC (1:10) tarkibli kopolimer 3000 ppm konsentratsiyada dizelning qattiq nuqtasini 26°C ga va CFPP ni 12°C ga kamaytiradi[23]. Dodekil metakrilat va vinil asetat kopolimerlari moylash moylarida ko‘p funksiyali qo‘shimchalar sifatida viskozite indeksini yaxshilash va quyilish nuqtasini pasaytirish uchun ishlatiladi[24].Metakrilat quyilish nuqtasi pasaytiruvchi qo‘shimchalarning soya

ISSN 3030-3907

biodiesel aralashmalarida ishlash mexanizmi differensial skanerlash kalorimetriyasi, past haroratli rentgen diffraktsiyasi va polyarizatsiyalangan optik mikroskopiya usullari bilan o‘rganilgan[25]. 10-320 tipidagi metakrilat PPD ning 1% miqdorda B60 aralashmasiga qo‘shilishi CFPP ni -10°C gacha pasaytiradi va bu eng muhim yaxshilanish hisoblanadi[25]. Qo‘shimchalar mum kristallarining morfologiyasini o‘zgartirib, ularning bir-biriga yopishishini kamaytiradi va kristallarning shakli mayda va bir xil bo‘lib qoladi[26]. Polimetakrilatlar (PMA) eng keng tarqalgan PPD turlari bo‘lib, ular neft sanoatida va moylash moylari ishlab chiqarishda ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda[27]. Biodiesel uchun mo‘ljallangan qo‘shimchalar tarkibida kislorod tutuvchi polar guruhlar, masalan, gidroksil va efir guruhlari bo‘lishi kerak, chunki bu guruhlar biodieselning yog‘ kislotasi efirlari bilan yaxshi o‘zaro ta'sir qiladi[28]. Metakrilat asosidagi polimer qo‘shimchalarining samaradorligi ularning molekulyar og‘irligiga ham bog‘liq bo‘lib, optimal molekulyar og‘irlik diapazoni har bir yoqilg‘i turi uchun alohida aniqlanishi kerak[29]. Tetradesilmetakrilat-norboren angidrid va tetradesilmetakrilat-karbon angidrid kopolimerlari yuzaga modifikatsiyalangan nano kremiy dioksid bilan birgalikda grafting qilinganda, dizelning past haroratdagi oqimliligi yanada yaxshilanadi[30].Biodieselning oksidlanish barqarorligi uning sifatini va uzoq muddatli saqlash imkoniyatini belgilovchi eng muhim xususiyatlardan biridir[31]. Biodiesel tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalari efirlari oksidlanishga juda moyil bo‘lib, bu jarayon havodagi kislorod, yorug‘lik, yuqori harorat va metall ionlari ta'sirida tezlashadi[32,33]. Oksidlanish jarayoni natijasida biodieselning viskozitesi, kislota soni va peroksid qiymati ortadi, shuningdek, eruvchan bo‘lmagan yopishqoq moddalar hosil bo‘lib, yoqilg‘i filtrlarini va quvur liniyalarini tiqib qo‘yishi mumkin[35]. Antioksidantlar qo‘shish biodieselning oksidlanish barqarorligini oshirishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan qulay usuli hisoblanadi[36]. To‘yingan yog‘ kislotalariga boy xom ashyodan olingan biodiesel yuqori oksidlanish barqarorligiga ega bo‘ladi, ammo uning sovuq oqimlilik xususiyatlari yomon bo‘ladi, aksincha to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy biodiesel yaxshi sovuq oqimlilikka ega bo‘lsa-da, oksidlanishga moyil[31,37]. Shu sababli, biodieselning har ikkala muammosini ham hal qilish uchun maxsus qo‘shimchalar kombinatsiyasi zarur[37].

ISSN 3030-3907



Grafik 2. Haroratning biodiesel viskozitesiga ta'siri (qo'shimchasiz va qo'shimchali)

Turli turdagi antioksidantlar biodieselning oksidlanish barqarorligini turlicha darajada oshiradi va hech qanday universal inhibitor mavjud emas, chunki har bir biodiesel turi o‘ziga xos yog‘ kislotasi tarkibiga ega[35,36]. Sintetik antioksidantlar orasida tert-butil gidrokvinon (TBHQ), butirlangan gidroksianizol (BHA) va butirlangan gidroksitoluen (BHT) eng samarali deb topilgan[32,38]. TBHQ qo‘shilishi biodieselning oksidlanish boshlangan haroratini sezilarli darajada oshiradi va Rancimat testi bilan o‘lchanadigan induktiv period vaqtini uzaytiradi[38]. Propil gallat (PrG) va α-tokoferol ham samarali antioksidantlar bo‘lib, ular tabiiy manbalardan olinishi mumkin[38]. Antioksidantlarning konsentratsiyasi biodieselning oksidlanish barqarorligiga katta ta'sir ko‘rsatadi va optimal konsentratsiya 100-400 ppm oralig‘ida bo‘ladi[39]. Kastor moyi biodieseliga BHA 2000 ppm konsentratsiyada qo‘shilganda, uning oksidlanish barqarorligi 6-15 marta ortadi[40]. Antioksidantlarning samaradorligi biodiesel tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalarining turiga va miqdoriga bog‘liq bo‘lib, ko‘p to‘yinmagan yog‘ kislotalariga boy biodiesellar antioksidantlarning ta'siriga kamroq javob beradi[37].Xitozan modifikatsiyalangan metakrilat sopolimerlarining biodiesel aralashmalaridagi qo‘llanilishi ikkita asosiy afzallikni birlashtiradi: birinchidan, metakrilat komponentlari past haroratdagi oqimlilik xususiyatlarini yaxshilaydi, ikkinchidan, xitozan o‘zining tabiiy antioksidant xususiyatlari tufayli biodieselning oksidlanish barqarorligini oshiradi. Xitozan tarkibidagi amino guruhlari erkin radikallarni tutib qolish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu oksidlanish jarayonini sekinlashtiradi. Xitozan-grafted polimetil metakrilat kompozitlari suyak to‘qimalari muhandisligi uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yaxshi mexanik mustahkamlik va uzoq muddatli barqarorlikka ega, shuningdek, dori moddalarini tashish uchun ham ishlatilishi mumkin[4]. Bu xususiyatlar

ISSN 3030-3907

xitozan-metakril kompozitlarining biodiesel qo‘shimchalari sifatida qo‘llanilishida ham foydali bo‘lishi mumkin. Xitozanning metakrilat bilan modifikatsiyasi uning gidrofoblik xususiyatlarini oshiradi va bu biodiesel aralashmalari bilan yaxshiroq moslashuvni ta'minlaydi[5,7]. Xitozan asosidagi kompozit materiallarning g‘ovakligi va yuzaki maydoni ham ularning samaradorligiga ta'sir qiladi, chunki bu parametrlar qo‘shimchaning yoqilg‘i aralashmasida taqsimlanishini va mum kristallari bilan o‘zaro ta'sirini belgilaydi[10].Biodieselning zichligi ham muhim fizik-kimyoviy xususiyat bo‘lib, u harorat ortishi bilan chiziqli ravishda kamayadi[16,17]. Standart sharoitlarda (15°C da) biodieselning zichligi odatda 860-900 kg/m³ oralig‘ida bo‘ladi[18]. Biodieselning chaqnash nuqtasi (flash point) xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim parametr bo‘lib, u odatda 130°C dan yuqori bo‘ladi, bu esa uni dizelga nisbatan xavfsizroq qiladi[18,19]. Biodieselning sirt tarangligi ham uning purkash xususiyatlariga ta'sir qiladi va bu parametr yonish kamerasida yoqilg‘ining atomizatsiyasini belgilaydi[18]. Biodiesel aralashmalarining reologik xususiyatlari harorat va tarkibga bog‘liq ravishda o‘zgaradi va bu o‘zgarishlar dvigatelning ishlash samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi[16,17]. Molekulyar modellashtirish usullari yordamida biodieselning turli fizik-kimyoviy xususiyatlarini, jumladan, setan sonini, viskoziteni, zichlikni, chaqnash nuqtasini va sovuq oqimlilik parametrlarini bashorat qilish mumkin[17].Xitozan-metakril sopolimer kompozitlarining biodiesel aralashmalaridagi ta'siri bir nechta omillarga bog‘liq, jumladan, polimer konsentratsiyasi, molekulyar og‘irligi, alkil zanjirining uzunligi va polar guruhlarning turi muhim rol o‘ynaydi. Optimal natijalar odatda 1500-3000 ppm konsentratsiya oralig‘ida erishiladi. Yuqori molekulyar og‘irlikka ega sopolimerlar mum kristallarining yuzasiga yaxshiroq adsorbsiya qilinadi, ammo ortiqcha yuqori molekulyar og‘irlik yoqilg‘ining viskozitesini haddan tashqari oshirishi mumkin. Shuning uchun, optimal molekulyar og‘irlikni tanlash muhim ahamiyatga ega. Polimer qo‘shimchalarning samaradorligi biodieselning tarkibiga ham bog‘liq bo‘lib, har xil xom ashyodan olingan biodiesellar turli xil javob beradi. Masalan, palmitik va stearik kislotalariga boy biodiesellar ko‘proq sovuq oqimlilik muammolariga duch keladi va shuning uchun ular qo‘shimchalardan ko‘proq foyda ko‘radi. Xitozan-metakril sopolimerlarining yana bir muhim afzalligi shundaki, ular ekologik jihatdan xavfsiz va bioparçalanadigan materiallardir, bu esa ularni zamonaviy ekologik talablariga javob beruvchi qiladi.

Kelajakda xitozan-modifikatsiyalangan metakril sopolimerlarini biodiesel aralashmalari uchun yanada yaxshilash yo‘llari mavjud. Masalan, nanokompozit materiallar yaratish, turli funksional guruhlarni qo‘shish va ko‘p komponentli polimer sistemalarini ishlab chiqish mumkin. Xitozan va metakril sopolimerlarining sinergik ta'siri biodieselning bir vaqtning o‘zida ham sovuq

ISSN 3030-3907

oqimlilik, ham oksidlanish barqarorligi muammolarini hal qilish imkonini beradi. Bu esa biodieselning sanoatda keng miqyosda qo‘llanilishiga yo‘l ochadi va qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Xitozan-metakril kompozitlarining narxi ham nisbatan past bo‘lib, bu ularni iqtisodiy jihatdan samarali qiladi. Bundan tashqari, xitozanning tabiiy manbalardan olinishi va uning biouyg‘unligi bu materiallarni ekologik jihatdan xavfsiz qiladi va ulardan foydalanish atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jiménez-Gómez C.P., Cecilia J.A. Pristine and modified chitosan as solid catalysts for catalysis and biodiesel production: A minireview. International Journal of Biological Macromolecules. 2020;164:2981-2994.
2. Ahmad N.H., Mustafa S., Banat F. Utilization of Polymeric Materials toward Sustainable Biodiesel Industry: A Recent Review. Polymers. 2022;14(12):2465.
3. Pramudya R., Rahayu S.S. A scientometric analysis and recent advances of emerging chitosan-based biomaterials as potential catalyst for biodiesel production: A review. Carbohydrate Polymers. 2023;318:121110.
4. Aranaz I., Alcántara A.R., Civera M.C., et al. Chitosan, chitosan derivatives, and chitosan-based nanocomposites: eco-friendly materials for advanced applications. Frontiers in Chemistry. 2023;11:1327426.
5. Bryuzgin E., Bryuzgina E., Yartseva V., et al. Biodegradation Control of Chitosan Materials by Surface Modification with Copolymers of Glycidyl Methacrylate and Alkyl Methacrylates. Fibers and Polymers. 2022;23(9):2502-2510.
